2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 117 (1443), 2025-yil 10-iyun, seshanba

www.yuz.uz  yuz.uznews  yuz_official  yuz.uz_news

# O‘ZBEKISTON – SLOVAKIYA: IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR TARIXIDA YANGI BOSQICHNI BOSHLAB BERGAN OLIY DARAJADAGI MULOQOTLAR

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitso rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.**



9-iyun kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tortdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston va Slovakiya davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoning muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Slovakiya o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Qayd etish lozim, O‘zbekiston tashqi siyosati strategiyasining faollashuvi va Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotgani fonida rasmiy Toshkent va Bratislava o‘rtasidagi munosabatlar yangicha sur’at oldi. Turli sohalarda hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari ushbu tashrif ko‘p qirrali O‘zbekiston — Slovakiya munosabatlari tarixida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berishini alohida ta’kidladi.

Hamkorlik barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tashqi ishlar vazirliklari darajasida konstruktiv siyosiy muloqotlar yo‘lga qo‘yildi, ishbilarmonlik va gumanitar almashinuvlar faollashdi.

Tovar ayirboshlash ortib bormoqda. May oyida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishi samarali o‘tkazildi. Kooperatsiyaning qator yangi yo‘nalishlari va loyihalari ustida ish olib borilmoqda.

Zamonaviy tahdidlar va oldindan aytib bo‘lmaydigan xalqaro vaziyatni hisobga olib, tashqi siyosiy idoralar, shu jumladan, Yevropa institutlari bilan sheriklik doirasida tizimli hamkorlik qilish, muvofiqlashtirish va qo‘llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, eng avvalo, o‘zaro yetkazib berilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekistondan to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, kimyo mahsulotlari, polimerlar, Slovakiyadan esa kauchuk, avtomobil qismlari, farmatsevtika va boshqa sanoat tovarlarini yetkazib berish shular jumlasidan.

Texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohalarida imzolanadigan bitimlarni amalga oshirish doirasida texnik to‘siqlarni bartaraf etish va kvant etaloni laboratoriyasini ishga tushirish muhimligi qayd etildi.

Slovakiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha keng ko‘lamli dasturni tayyorlash, jumladan, agrosanoat majmui, avtomobillar uchun butlovchi qismlarni mahalliylashtirish, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish, “yashil” energetika va turizm loyihalarini amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Raqamli yechimlarni joriy etish va startap investitsiyalar sohasida katta imkoniyatlar mavjud. Shu ma’noda, IT startaplarini akseleratsiya qilish bo‘yicha qo‘shma venchur fondini tashkil etish masalasi ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, qo‘shma loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun mavjud moliyaviy vositalardan keng foydalanish taklif etildi.

Gumanitar sohada ta’lim va akademik almashinuvni rivojlantirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani tasdiqlandi. Qo‘shma tadqiqot dasturlarini, shu jumladan, Bratislavadagi Komenskiy universiteti ishtirokida yo‘lga qo‘yish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Tomonlar o‘zaro ko‘rgazmalar, kino namoyishlari, konsertlar, shuningdek, muzey ishi sohasidagi loyihalarni o‘tkazishni nazarda tutuvchi Madaniyat sohasida hamkorlik dasturini qabul qilishga kelishib oldilar.

Tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Slovakiya tomoni ushbu sohada tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan manfaatdor ekani ta’kidlandi.

Xalqaro ahamiyatga molik masalalar, jumladan, ko‘p tomonlama maydonlarda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashildi.

Qabul qilingan qaror va kelishuvlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida ikki mamlakat hukumatlari tomonidan keng qamrovli “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi haqida kelishib olindi.

Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitso Strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Yetakchilar huzurida ikki tomonlama hujjatlar, xususan:

— diplomatik kadrlar tayyorlash to‘g‘risida;

— qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— standartlashtirish, metrologiya va tovarlarning muvofiqligini baholash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

— energetika bozorlarini tartibga solish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar;

— 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlik dasturi;

— 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan standartlashtirish sohasidagi hamkorlik dasturi almashildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda daraxt ekdilar.

Marosim ikki mamlakat xalqlari o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro anglashuv mustahkamlanib borayotgani, O‘zbekiston — Slovakiya munosabatlari rivojida yangi — strategik sheriklik bosqichi boshlanganining ramzi bo‘ldi.

Shu kuni oliy martabali mehmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Slovakiya delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me’moriy yechimlari haqida ma’lumot berildi.

Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**
**O‘zA muxbiri**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.**

## YANGI TARAQQIYOT BANKI BILAN AMALIY ALOQALAR YANADA RIVOJLANTIRILADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan BRIKS Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusefni qabul qildi.**

Ushbu ko‘p tomonlama moliyaviy institut bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

O‘tgan yil oktabr oyidagi BRIKS sammiti doirasida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xususan, bankning Boshqaruvchilar kengashi tomonidan O‘zbekiston Yangi taraqqiyot bankiga a’zo bo‘lishiga prinsipial rozilik berildi. Umumiy qiymati 5 milliard dollarlik birinchi navbatdagi qo‘shma loyihalar dasturi shakllantirildi.

Davlatimiz rahbari irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, tog‘-kon sanoatini rivojlantirish, xususiy sektorni moliyalashtirish, ta’lim va infratuzilma sohalarida davlat-xususiy sheriklikni ilgari surish kabi ustuvor yo‘nalishlarda loyihalarni tez fursatda tayyorlash va amalga oshirish muhimligini ta’kidladi.

Shuningdek, yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalari qo‘llab-quvvatlandi.

**O‘zA**

## AMERIKA BIZNESI BILAN INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK ISTIQBOLLARI QAYD ETILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumi arafasida Amerika Qo‘shma Shtatlarining yetakchi kompaniyalari delegatsiyasi bilan uchrashuv o‘tkazdi.**

Uchrashuvda AQSH Davlat kotibi yordamchisi Erik Meyer, Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasi vitse-prezidenti Brez Betani, shuningdek, “Boeing”, “FLS”, “Visa”, “NASDAQ”, “Air Products”, “Franklin Templeton”, “Morgan Stanley”, “Coca-Cola” va boshqa ko‘plab korporatsiyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari ushbu uchrashuv Amerika biznesida O‘zbekistondagi faoliyatni kengaytirishga qiziqish ortib borayotganidan dalolat ekanini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Investitsion va innovatsion hamkorlik istiqbollariga, strategik ahamiyatga ega materiallarni o‘zlashtirish va qayta ishlash, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar, transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqa sohalarda aniq loyihalarni ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

AQSHning yetakchi kompaniyalari rahbarlari investorlarning samarali faoliyatiga yaratilayotgan qulay sharoitlar uchun O‘zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildirib, o‘zlarining aniq taklif va rejalarini bayon qildi.

**O‘zA**

## BOLGARIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI O‘ZBEKISTONGA KELDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev 9-iyun kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.**

Toshkent shahri xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 10-iyun kuni bo‘lib o‘tadi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ikki mamlakat yetakchilarining muzokaralari, rasmiy va ishbilarmonlik tadbirlari o‘tkazilishi, qator ikki tomonlama bitimlar imzolanishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston va Bolgariya Prezidentlari o‘zaro manfaatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, shu jumladan, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, agrosanoat majmui, farmatsevtika tarmog‘i, konchilik, raqamlashtirish sohalarida kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish, turizm va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirish masalalarini ko‘rib chiqadilar.

Bolgariya Prezidenti IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham ishtirok etadi.

**I.AVVALBOYEV,**
**O‘zA muxbiri**

## O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION “TASHRIF QOG‘OZ”I

### IV TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI ISH BOSHLADI

**Savdo aloqalarida o‘zaro ishonch ko‘p narsani belgilab beradi. Bu nafaqat sheriklarning bir-biriga ishonchi, balki loyihaning istiqboli, uning rivojlanishi uchun sharoitlar mavjudligi, huquqiy asos kabi masalalarda ikkilanmaslik va boshqa ko‘plab omillarda ko‘zga tashlanadi. Keyingi yillarda xorijlik ishbilarmonlar O‘zbekistonga ana shunday katta ishonch va qiziqish bilan qaramoqda. Bunga mamlakatimizda yaratilgan qulay, huquqiy kafolatlangan ishbilarmonlik muhiti sabab. Ana shu omillar yurtimizga kirib kelayotgan xorijlik investorlar oqimi va barcha sohalarda kiritilayotgan investitsiyalar hajmini yildan yilga oshiryapti.**

*Davomi 2-betda*

## “MILLAT FIDOYILARI” – FIDOYILIK MOHIYATINI ANGLASH MAYDONI

**Ba’zan shunday bo‘ladi: sen ko‘rgan voqea bir-biridan deyarli farq qilmaydigan zerikarli kunlaring ko‘lankasida mudrab borayotgan tafakkuringni, unga qo‘shib ruhingni ham uyg‘otib yuboradi. Birgina so‘z vaqt millarini xotirang sarhadlari uzra o‘tmish tomon sudray boshlaydi. Allaqaysi tovush, allaqanday hid tomirlaringda qotib qolgan ne bir tanish tuyg‘uni qo‘zg‘ab qo‘yadi, ongingda chaqnab o‘tgan birgina fikr yorug‘ xayollar sari yetaklaydi. Bugun shunday bo‘ldi…**



Aslida-ku hech qanday olamshumul hodisa yuz bergani ham yo‘q. Shunchaki, eski tanishim, aniqrog‘i, kursdoshimni uchratib qoldim. Hozir u haqida gapirmoqchi emasman, suhbatimiz boshqa mavzuda — u menga bir paytlar istehzo bilan qo‘yib olgan nom, laqab xususida boradi. Qisqasi, u meni “qahramon” deb atar, darsga kirgan har bitta yangi ustozdan atay mening g‘ashimga tegish uchun quyidagi savolni qayta-qayta so‘rar, ketidan menga imo qilib, ichida kulib qo‘yardi: “Domla, har bir davr adabiyotining o‘z qahramonlari bor, bugun-chi? Hozirgi zamonaviy adabiyotda kimni qahramon desak bo‘ladi?”.

*Davomi 3-betda*

Kun mavzusi

# O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION “TASHRIF QOG‘OZ”I

## IV TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI ISH BOSHLADI

TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM

Boshlanishi 1-betda

Investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy kuchi, ta’bir joiz bo‘lsa, uni harakatlantiruvchi drayverga aylangan. Hatto dunyo davlatlari ishbilarmonlari, sarmoyadorlari O‘zbekiston orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantiryapti. Har yili an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi esa qit’aning eng muhim iqtisodiy platformasi sifatida e’tirof etilmoqda. Forum qisqa vaqtda mamlakatimizning investitsion jozibador davlat sifatidagi imijini oshirishda o‘ziga xos “tashrif qog‘oz”ga aylandi.

Bu yil tadbir poytaxtimizda to‘rtinchi bor o‘tkazilmoqda. Oxirgi oylarda yirik xalqaro forumga puxta va qizg‘in tayyorgarlik ko‘rildi. Boisi, ko‘lam yanada keng, tashkiliy ishlardan tortib, anjumanni o‘tkazish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning bari hisob-kitob qilingan. Bir necha kun davomida bo‘lib o‘tadigan o‘nlab tadbirlar rejasi tayyorlangan. Mehmonlarni munosib kutib olish, forumni o‘tkazish jarayoni ham yuqori saviyada tashkillashtirilmoqda. Maqsad anjuman ishtirokchilariga qulaylik yaratish, mamlakatimiz hayotidagi eng nufuzli tadbirlardan birini yuqori darajada o‘tkazishga qaratilgan.

Poytaxtimiz mezbonlik qilayotgan anjuman doirasida o‘tadigan tadbirlar, muhokama qilinadigan masalalar ko‘p. Tashrif buyuradigan mehmonlar soni ham oz emas — 100 ga yaqin davlatdan 3 mingga yaqin xorijiy mehmon ishtirok etadi. Qolaversa, 500 dan ortiq xalqaro kompaniya rahbarlari va siyosatchilar qatnashishi kutilyapti.

Shu kunlari jahonning yetakchi investorlari, innovatorlar va sanoat sohasining ilg‘or vakillari Toshkentda jam bo‘lib, mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojiga xizmat qiladigan muhim loyiha va tashabbuslarni muhokama qiladi. Bu tashabbuslar katta ehtimol bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik va bitimlarga aylanadi.

### Samara aniq raqamlarda aks etmoqda

Bugun Toshkent xalqaro investitsiya forumi nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik va nufuzli tadbirlardan biriga aylanib ulgurdi. Har yili forum xorijliklarda katta qiziqish uyg‘otib, chet el ommaviy axborot vositalarida keng yoritib kelinmoqda. Qatnashchilar soni esa yil sayin oshib boryapti. Tadbir shu bahona mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati, investitsion imkoniyatlari bilan tanishishni maqsad qilgan ko‘plab sarmoyadorlar uchun qulay platformaga aylandi. Forumda har yili o‘nlab, yuzlab yangi xorijlik mehmonlarni uchratish mumkin. Anjuman istiqbolli sheriklar bilan muloqot qilish, yangi kelishuvlarga erishish bo‘yicha mintaqadagi muhim platforma sifatida e’tirof etilib, xalqaro ishbilarmon doiralarda yaxshigina qiziqish uyg‘otmoqda.

> **Tadbir ilk bor o‘tkazilgan 2022-yildayoq shov-shuv bo‘lgani yodimda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi ilk yildayoq dunyoning 56 davlatidan 2 mingdan ortiq ishtirokchi — investor va yuqori martabali mehmonlarni jamlaganiga guvoh bo‘lgandik. O‘shanda forum yuqori saviyada o‘tgan, tadbir chinakam investiya, iqtisodiyot bayramiga aylanib, yirik tadbirkorlik anjumani sifatida e’tirof etilgan.**

Amaliy natijasi ham oz bo‘lmadi — yakunda jami 7,8 milliard dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolanib, qiymati 3,5 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha dastlabki kelishuvlarga erishilgan.

2023-yilgi natijalar ham bundan kam emas. Yilning eng muhim anjumanida dunyoning 70 dan ortiq davlatidan 2,5 mingga yaqin yuqori martabali mehmon jam bo‘ldi. Forum ishini 200 dan ziyod mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositasi vakillari yoritib borgani esa uning nufuzi nafaqat mamlakatimiz, balki jahon maydonida ham ortib borayotganini ko‘rsatdi. O‘tgan yili esa Toshkent xalqaro investitsiya forumida 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ko‘proq ishtirokchi hozir bo‘ldi. Nufuzli tadbir 26,6 milliard dollarlik kelishuvlar imzolanishi bilan yakunlangan.

Umuman, bugungi kungacha forum uch bor o‘tkazilgan bo‘lsa, ularda jami 44 milliard dollarlik 357 ta investitsion kelishuv imzolangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirga kelib, bu loyihalarning 57 tasi to‘liq ro‘yobga chiqarilgan. Qolganlari bo‘yicha esa qurilish va loyihalash ishlari davom etmoqda.

Yirik hamkorlar orasida Xitoy, Rossiya, BAA, Turkiya, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bor. Ammo loyihalarning eng katta qismi Saudiya Arabistoni vakillari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ular bilan jami 10,7 milliard dollarlik bitimlar imzolangan. O‘tgan yili III Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida saudiyalik mehmonlar bilan suhbatlashgandik. O‘shanda ular O‘zbekiston bilan hamkorlik katta istiqbolga ega ekani, bu hamkorlikni o‘zaro ishonch mustahkamlayotgani va yanada ko‘proq loyihalarga yo‘l ochayotganini ta’kidlashgan edi.

“O‘zbekiston biz uchun katta bozor. Qisqa muddat ichida mamlakatga 8,9 milliard dollarlik investitsiya kiritdik. Ayni paytda “yashil” energetika sektorida 6 GVt quvvatga ega loyihaning qurilish jarayonlari ketmoqda. Bu yerda eng ko‘p investitsiya loyihalari amalga oshirib kelayotgan ikkinchi mamlakat ekanimizdan mamnunmiz. Investitsion loyihalarni yanada rivojlantirishda davom etyapmiz” degan edi Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abdulla Abunayyan o‘z intervyusida.

### Sarmoyalar markaziga aylanayotgan Toshkent

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi shu kabi investorlar, biznes vakillari uchun yana bir bor samarali muloqot maydonini yaratadi. Uchrashuvlarda sanoatni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, barqaror taraqqiyot tamoyillarini ilgari surish hamda mintaqaviy savdo aloqalarini kengaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar qamrab olinadi. Barcha sohalar bo‘yicha yangi loyihalar haqida so‘z boradi. Bu jarayonlarda esa bevosita yetakchi xorijiy investorlar, siyosatchilar, biznes doira vakillari faol ishtirok etadi.

Xorijlik mehmonlarni qizg‘in kutib olish allaqachon boshlangan. Forum oldidan ular bilan yuqori doiradagi uchrashuvlar ham bo‘lib o‘tmoqda. Xususan, joriy yilning 7-iyun kuni davlatimiz rahbari “Al Mirqab Capital” kompaniyasi boshqaruvi raisi Jassim Ol Soniy va “Blackrock” investitsiya kompaniyasi katta boshqaruvchi direktori Adebayo Ogunlesidan iborat xorijlik investorlar delegatsiyasini qabul qildi. Muloqotda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va mamlakatimizda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tadbir ruhi shu tarzda yurtimiz bo‘ylab sezila boshladi. Joriy hafta mamlakatimiz dunyo investitsiya sanoatining yirik vakillari bilan yanada gavjumlashadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov kecha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun o‘tkazgan brifingda IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida 8 ming nafar delegat qatnashishi kutilayotganini ma’lum qildi. Ishtirokchilar orasida oliy darajadagi nufuzli mehmonlar bor.

Ana shu ma’lumotlarning o‘ziyoq xalqaro forumning ahamiyati oshib borayotganini ko‘rsatadi. Xorijliklar tadbir orqali O‘zbekistonga ko‘proq sarmoya kiritishga intilyapti. Minglab kilometr olislardan jiddiy takliflar, katta mablag‘lar bilan kelayotgan investorlarning qadami uzilmayapti. Yurtimizni qayta kashf etgan, uning salohiyati, istiqboliga ishonchi ortgan investorlar o‘zlari kelib, nafaqat poytaxt, balki hududlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga urinmoqda.

Bugun chet ellik ishbilarmonlarni biror narsaga ishontirishga hojat yo‘q. Ular yurtimizdagi rivojlanishlar, investorlar uchun yaratilgan sharoitlarni o‘zi ko‘rib, ishonch hosil qilyapti. Aksariyati yirik loyihalarga sarmoya kiritish, yangi hamkorlar topish istagida. Toshkent xalqaro investitsiya forumi ana shunday kelishuvlar uchun qulay maydonga aylanadi.

O‘tgan to‘rt yil davomida dunyoning eng ko‘zga ko‘ringan, katta tajribaga ega yirik kompaniyalari, biznes vakillari ana shu investitsiya forumi sabab mamlakatimizda bo‘ldi. Uzoqdan turib yurtimizning iqtisodiy imkoniyatlarini chamalayotganlar ham endi bu diyorga bemalol kelib, sarmoya kiritish mumkinligiga amin bo‘lyapti.

— O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi jadal rivojlanayotgan sarmoyaviy markaz sifatidagi mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda, — dedi xalqaro forum oldidan tashkil etilgan brifingda O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov. — Oxirgi 7-8 yilda iqtisodiyotimizni erkinlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha katta islohotlar qilindi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda 90 milliard dollardan ortiq to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etdi. Natijada faqat o‘tgan yilning o‘zida yalpi ichki mahsulotimiz 6 foiz oshdi. 2030-yilga borib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 200 milliard dollarga yetishi kutilyapti. Bu maqsadga erishishda xorijiy investitsiyalar katta rol o‘ynaydi.

Joriy yilgi forumda mahalliy iqtisodiyot va sanoat imkoniyatlarini yanada kengroq namoyish etish maqsad qilingan. Shu bois, ilk bor milliy investitsiya ko‘rgazmasi tashkil etilmoqda. Ko‘rgazmada neft kimyosi, mashinasozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati kabi 10 dan ortiq istiqbolli tarmoqda faoliyat yuritayotgan 90 dan ziyod yetakchi mahalliy kompaniya o‘z mahsulotlari bilan ishtirok etadi. Ya’ni kattagina ko‘rgazma maydonida O‘zbekiston brendi ostida ishlab chiqarilayotgan yuzlab mahsulotlar namoyish qilinadi. Bu xorijlik mehmonlar shu yerning o‘zida yurtimizning zamonaviy ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan tanishadi degani.

Tasavvur qiling, yaqin yillargacha ishlab chiqarishi deyarli bo‘lmagan O‘zbekiston bugun milliy mahsulotlari bilan katta ko‘rgazma maydonlarini to‘ldiryapti. To‘ldiribgina qolmay, sifat borasida bemalol xorij brendlari bilan raqobatlashyati. Shu bois, tashkil etiladigan milliy ko‘rgazmani IV Toshkent xalqaro investitsiya forumining eng yorqin namoyishlaridan biri, deyish mumkin.

Shuningdek, forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining uchinchi yalpi majlisi o‘tkazilishi belgilangan. Majlisda yetakchi xalqaro kompaniyalar va yirik moliya institutlari rahbarlari ishtirok etishi kutilmoqda.

Panel sessiya va uchrashuvlar ham doimgidek tadbirga qizg‘in ruh beradi. Axir jahonning yetakchi korporatsiyalari va investitsiya fondlari top-menejerlari, yirik iqtisodchi, xalqaro moliya institutlari vakillari, sohaning mashhur ekspertlaridan ma’ruzalar tinglash imkoniyati har doim ham bo‘lavermaydi. Yirik formatdagi tadbir esa ishtirokchilar uchun bevosita investorlar va sanoat yetakchilari bilan uchrashadigan, yangi tarmoqlarni o‘rganib, uzoq muddatli loyihalarni kashf etadigan manzilga aylanadi.

Umuman, IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi mehmonlar uchun ham, mezbonlar uchun ham birdek manfaatli bo‘lishi tayin. O‘tgan yili anjuman doirasida umumiy qiymati 26 milliard dollarlikdan ziyod investitsiya bitimlari va shartnomalar imzolangan edi. Joriy yilda kelishuvlar portfelini 30 milliard dollardan oshirish kutilmoqda. Bu iqtisodiyotning turli tarmoqlarida minglab ish o‘rni, aholi daromad manbai yaratiladi degani. Loyihalar samarasi esa yurtimizdagi har bir oilaga kirib borib, iqtisodiy farovonlikka xizmat qiladi.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# O‘ZBEKISTON – SLOVAKIYA SAMMITI YEVROOSIYODA PRAGMATIZM, O‘ZARO MANFAATDORLIK VA REAL HARAKATLARGA ASOSLANGAN YANGI HAMKORLIK UFQLARI SHAKLLANAYOTGANIDAN DALOLATDIR

**O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitsoning 9-iyun kuni Ko‘ksaroy qarorgohida bo‘lib o‘tgan muzokaralari xorijiy ekspertlar hamjamiyati tomonidan ikki tomonlama munosabatlardagi eng muhim voqea sifatida baholanmoqda.**

Ekspertlarning ta’kidiga ko‘ra, mazkur tashrif rasmiy Toshkent va Bratislava o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlash uchun keng imkoniyatlar ochadi. Tashrif, shuningdek, an’anaviy formatlardan tashqariga chiqdi hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy, ta’lim va texnologik kabi istiqbolli yo‘nalishlarni qamrab oldi.

Kuzatuvchilar Slovakiya kabi davlatlar bilan muloqot faollashgani O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarini diversifikatsiya qilish borasidagi izchil siyosatidan dalolat ekanini ta’kidlamoqda. O‘zgaruvchan xalqaro muhit sharoitida O‘zbekiston Yevropa davlatlari bilan ko‘p vektorli hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda, yangi bozorlarda o‘z ishtirokini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish hamda ishonchli va ochiq sherik sifatidagi mavqeini mustahkamlashga intilmoqda.

**Antonio Alonso,**
**San-Pablo universiteti Ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha ekspert (Ispaniya):**



— Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar dinamikasini yaqindan kuzatib borayotgan tadqiqotchi sifatida 9-iyun kuni Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso o‘rtasida bo‘lib o‘tgan muzokaralarni katta qiziqish bilan kuzatdim.

Bu muzokaralar ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali sheriklikni rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Eng avvalo, erishilgan kelishuvlarning strategik chuqurligini ta’kidlash joiz. Hamkorlik formati protokol bayonotlaridan tashqari chiqadi va haqiqiy amaliy salohiyatga ega aniq sohalarni qamrab oladi. Iqtisodiyot va energetikadan tortib, madaniyat va akademik almashinuvlargacha bo‘lgan yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Akademik nuqtayi nazardan, ta’lim va ilmiy muloqotni kengaytirishga alohida e’tibor qaratishni muhim deb bilaman. Bratislavadagi Komenskiy universiteti ishtirokida qo‘shma tadqiqot dasturlarini yo‘lga qo‘yish haqidagi kelishuv shunchaki ramziy ishora emas, balki ilmiy hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochadigan strategik qadamdir. O‘zaro hamkorlikning bunday formati universitetlarni xalqarolashtirishga, tadqiqot vakolatlarini mustahkamlashga va qo‘shma ta’lim standartlarini shakllantirishga yordam berishi mumkin.

Men IT startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun venchur fondini yaratish tashabbusini ahamiyatli deb bilaman. Bu iqtisodiyotning zamonaviy raqamli transformatsiyasi mantig‘iga to‘g‘ri keladi va amaliy texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida ishlayotgan yosh tadbirkorlar uchun ham, tadqiqot guruhlari uchun ham qiziqish uyg‘otadi.

Bitimlarning keng qamrovliligi ham diqqatga sazovordir. Ular iqtisodiyot va ilm-fandan tashqari standartlashtirish, texnik tartibga solish, madaniy-gumanitar aloqalarni o‘z ichiga oladi. Bu ikki tomonlama munosabatlarning barqaror va bir-birini to‘ldiruvchi rivojlanishi uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

Ishonchim komilki, ushbu tashrif nafaqat O‘zbekiston va Slovakiya o‘rtasidagi strategik sheriklik, balki xalqaro hamkorlikka yondashuvlarni sifat jihatidan yangilash, yanada mazmunli qilish, maqsadli va natijaga yo‘naltirilgan munosabatlarga asos soldi.

**Hikmet Eren,**
**“EkoAvrasya” Yevroosiyo iqtisodiy aloqalar jamg‘armasi boshqaruvi raisi (Turkiya):**



— Tashrif va oliy darajadagi muzokaralar nafaqat rasmiy Toshkent va Bratislavaning ikki tomonlama kun tartibi, balki butun Yevroosiyo uchun muhim voqea bo‘ldi.

Ochiqlik, barqaror rivojlanish va xalqaro hamkorlik yo‘lidan ishonch bilan borayotgan O‘zbekiston YI davlatlari uchun muhim hamkor hisoblanadi.

Global muammolar, beqarorlik va iqtisodiy o‘zgarishlar fonida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekiston — Slovakiya munosabatlarining yangi bosqichi shakllanayotgani o‘z vaqtida va uzoqni ko‘zlangan qadam bo‘ldi. Muzokaralarda sanoat kooperatsiyasi, sarmoyaviy hamkorlik, agrosanoat sektori, farmatsevtika, raqamlashtirish va “yashil” energetika kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi.

O‘zbekiston kuchli Yevroosiyo ishlab chiqarish va logistika makonini barpo etishga katta ahamiyat qaratadi. Xususan, Slovakiya kompaniyalari ishtirokida qo‘shma sanoat kooperatsiyasi dasturini yaratish tashabbusi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish maqsadlariga to‘liq mos keladi.

Ta’lim almashinuvi, qo‘shma ilmiy dasturlarning yo‘lga qo‘yilgani, O‘zbekiston va Slovakiya o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani ham e’tirofga loyiq.

Uyushgan mehnat migratsiyasi bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, qo‘shma startap platformalarini yaratish va universitetlararo aloqalarni mustahkamlash haqiqiy Yevroosiyo gumanitar makonini shakllantirishga yo‘l ochadi.

Turkiya ekspertlar hamjamiyati bu qadamlarni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish, xalqlarni yaqinlashtirish va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlashga qo‘shayotgan hissasi sifatida ko‘rmoqda.

Men Toshkentda erishilgan kelishuvlar amaliyotga tatbiq etilishiga, ikki tomonlama munosabatlarga yangi sur’at bag‘ishlashiga, O‘zbekiston va Slovakiyaning Yevroosiyo makonida ishonchli sheriklar sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashiga ishonaman.

**Roy Entoni Rojers,**
**Malaya universiteti xalqaro va strategik tadqiqotlar kafedrasi professori (Malayziya):**



— Tashrif Sharqiy Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyoning jadal isloh qilinayotgan bozoriga qiziqishi ortib borayotganining ko‘rsatkichi sifatida baholanishi kerak.

Kuala-Lumpur nuqtayi nazaridan, bu Toshkent an’anaviy hamkorlar “perimetridan tashqariga” chiqish va Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni diversifikatsiya qilishga erishayotganining yaqqol tasdig‘idir.

“Bosh vazir tashrifi + investitsiya forumi” formati bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston rahbariyati tomonidan tizimli ravishda ilgari surilayotgan xususiylashtirish va investitsiya dasturini siyosiy qo‘llab-quvvatlashdan manfaatdorlikni namoyish etadi.

Savdo-investitsiya bloki, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, mashinasozlik va “yashil” energiya bo‘yicha muzokaralarda Slovakiyaning e’tibori O‘zbekistonning jadal sanoatlashtirish va “yashil” burilish bo‘yicha yo‘nalishiga, shuningdek, Slovakiyaning yangi savdo bozorlari va xomashyo diversifikatsiyasiga bo‘lgan ehtiyojiga tabiiy ravishda mos keladi.

Yana bir yangi yo‘nalish — uyushgan mehnat migratsiyasidir. Slovakiyadagi ishchi kuchi yetishmovchiligi Toshkentga YIga malakali kadrlarni jo‘natish, buning evaziga valyutadan tushgan tushumlar va texnologik o‘qitish bo‘yicha milliy dasturlarni ilgari surish imkonini beradi.

Bosh vazir Robert Fitsoning IV Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi ishtiroki imkoniyatlarni kengaytiradi. Shuningdek, imzolangan salmoqli bitimlar va “yo‘l xaritalari” Slovakiyani o‘zbek biznesi uchun Vishegrad to‘rtligi yoki kengroq aytganda, YI bozorlariga kirish uchun muhim darvozaga aylantiradi.

**Tazin Axtar,**
**“Pakistan in the world” gazetasi bosh muharriri (Pokiston):**

— Tashrif Markaziy Osiyo va Markaziy Yevropa o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik yangi va yanada mazmunli bosqichga ko‘tarilganini tasdiqlaydi. Gap sanoat, investitsiya, ilm-fan, madaniyat va migratsiya siyosatini qamrab olgan aniq hamkorlik mexanizmlarini ishga tushirishga bo‘lgan jiddiy maqsadlar haqida ketmoqda.

Ayniqsa, Toshkentdagi muzokaralar chog‘ida tomonlar umumiy niyatlardan uzoq muddatli hamkorlik arxitekturasini barpo etishga o‘tgani alohida e’tiborga molik. Gap keng ko‘lamli Sanoat kooperatsiyasi dasturini tayyorlash, kvant standarti laboratoriyasini ishga tushirish, IT startaplari bo‘yicha qo‘shma venchur fondini yaratish va imzolangan kelishuvlarni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini kelishish haqida bormoqda.

> **Slovakiya O‘zbekistonni nafaqat eksport bozori, balki butun Yevroosiyo qit’asiga chiqish imkoniyatiga ega ishlab chiqarish markazi sifatida ko‘rib, muhim yondashuvni namoyish etmoqda. Menimcha, bu, ayniqsa, ta’minot zanjirlarini qayta ko‘rib chiqish va global beqarorlik fonida juda dolzarbdir.**



Slovakiya O‘zbekistonni nafaqat eksport bozori, balki butun Yevroosiyo qit’asiga chiqish imkoniyatiga ega ishlab chiqarish markazi sifatida ko‘rib, muhim yondashuvni namoyish etmoqda. Menimcha, bu, ayniqsa, ta’minot zanjirlarini qayta ko‘rib chiqish va global beqarorlik fonida juda dolzarbdir.

Akademik almashinuvlar to‘g‘risidagi kelishuvlar, Slovakiya universitetlari ishtirokida ilmiy tadqiqot dasturlarini yo‘lga qo‘yish, madaniy loyihalar va uyushgan mehnat migratsiyasi bo‘yicha muhokamalar barqaror hamda o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot uchun sharoit yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Robert Fitsoning tashrifi nafaqat O‘zbekiston — Slovakiya munosabatlari kontekstida muhim ahamiyatga ega, balki kengroq tendensiya — Yevroosiyoda pragmatizm, o‘zaro manfaatdorlik va real harakatlarga tayyorlik asosidagi o‘zaro hamkorlikning yangi ufqlarini shakllantirish ramzidir. O‘zbekiston, shubhasiz, ushbu yangi imkoniyatlar diplomatiyasini jalb qiluvchi markazlardan biriga aylanib bormoqda.

**“Dunyo” AA**




Mulohaza

# “MILLAT FIDOYILARI” – FIDOYILIK MOHIYATINI ANGLASH MAYDONI



**Asliddin ABDURAZZOQOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**Boshlanishi 1-betda**

Ochig‘i, kursdoshimning nega menga bunchalik xirapashshaday yopishib olganini ham, nima sababdan universitetdagi “ismim” qahramon bo‘lganini ham aniq eslolmayman, biroq ustozning javobi so‘zma-so‘z yodimda qolgan. “Zamonaviy adabiyotdagi qahramonlar bugungi hayotimizdagi qahramonlardir, ularni taniy bilishimiz, kezi kelsa, ulardan biriga aylanishimiz zarur”, degandi qisqagina qilib.

Kimnidir mazax qilish uchun ochilgan gap o‘shanda talabalar o‘rtasida rosmanasiga bahs-munozara mavzusiga aylanib ketgandi. Har kim o‘z fikrini ustun qo‘yishga urinar, birov qayerdandir topib kelgan iqtibosini rad etib bo‘lmas dalildek oraga tashlar, fikrini o‘tkazolmaganlari ovozini balandlatar, xullas, kimdir baho uchun, yana kimdir bilim uchun tirishardi… Hozir o‘ylab qarasam, qahramon o‘zi kim, qahramonlik nima degan savol balandparvoz yoki bosh-keti yo‘q mavhum jumla emas, aksincha, bosh qotirishga arziydigan, jiddiy, bugunimiz va kelajakka daxldor muhim masala ekan.

* * *

Inson qalbining tub-tubida umid shami kabi miltillab turgan bir yolqin borki, hatto kishi o‘zi ham ba’zan uning borligini yodidan chiqaradi. U ko‘zga ko‘rinmaydi, biroq o‘sha kichik mash’ala umr yo‘lini bir maromda yoritib turadi. U favqulodda sodir bo‘lmaydi, balki hayot tarziga aylanib ulguradi. Bu mash’alaning nomi qahramonlikdir.

Insoniyat taraqqiyoti davomida qahramonlikning ko‘lamlari kengaydi. Har bir tarixiy bosqich yangi ehtiyojlarni tug‘dirgani kabi yangi qahramonlik shakllarini ham talab qiladi. Endilikda uni tor doirada — harbiy safarbarliklar, urushlar bilan cheklash ijtimoiy tafakkur va tarixiy ongni bir nuqtada to‘xtatib qo‘yadi. Aslida, qahramonlik zamonga moslashuvchan, jamiyat ehtiyojlariga bog‘liq holda shakllanadigan murakkab hodisadir. Shu bois, bugun qahramonlikni nafaqat front ortida, balki qaynoq hayotning har bir sohasida, har bir kishining tanlovida va harakatida qayta talqin qilish qat’iy zaruratga aylangan.

## Tarix ruhiy tayanch, qahramonlik esa doimiy ehtiyojdir

Istalgan xalq tafakkurida o‘ziga xos tarixiy genetik kodlar, urf-odat va motivlar mavjud, u asrlar mobaynida shakllanadi, boshidan o‘tgan ijtimoiy sinovlar, siyosiy fojialar hamda ma’naviy yuksalishlar orqali mustahkamlanadi. O‘zbek xalqi ongidagi qahramonlik ruhi ham shunday tarixiy shakllanish jarayoni mahsulidir.

Bugun bu ruh faqat ko‘hna obidalardagina aks etmaydi, uni xalqning tilida, qadriyatida, madaniyatida, islohotlarga yondashuvida ko‘rish mumkin. Shu sababli qahramonlikni millat ruhining bir shakli sifatida ko‘rib chiqish nafaqat adabiy yoki tarixiy zarurat, balki hozirgi jamiyatda ma’nan o‘z-o‘zini anglash ehtiyojidir.

Agar xalq o‘tmishida qahramonlar bo‘lmaganida, u ehtimol millat darajasida yuksala olmas, nari borsa, omma sifatida so‘nib ketgan bo‘lardi. Negaki, millatni faqat hudud emas, balki uni saqlab qolgan umumg‘oya, o‘zlik hissi va unga suyanilgan qahramonlar boshqaradi. Bu qahramonlar doimo hayotimizda yashab kelgan — ular ba’zan jadid, ba’zan ulug‘ sarkarda, ba’zan esa so‘z kimyogari sifatida maydonga chiqqan.

Xalqimizda “Yurt uchun jon fido” degan ibora bor. Bu yo‘l-yo‘lakay o‘ylab topilgan gap emas, balki ongda muhrlangan prinsip. Boisi, har bir tarixiy bosqichda bu prinsip amalda namoyon bo‘lgan. Mustaqilligini saqlab qolishga uringan har bir millat singari o‘zbek xalqi ham o‘z tarixiy borlig‘ini aynan qahramonlik ruhi orqali yo‘qotmagan. Bir necha ming yillik o‘tmishimiz solnomalariga nazar solinsa, bunga talay misollar topish mumkin, ularni esa aksariyatimiz muayyan darajada bilamiz, hech bo‘lmasa biror marta eshitganmiz.

Shuningdek, xalq tafakkurida qahramonlik faqat dushman ustidan g‘alaba bilan o‘lchanmaydi, balki ma’naviy mukammallikka intilish sifatida qaraladi. Bu ruhiy yetuklik ko‘plab tarixiy shaxslar siymosida mujassam topgan. Ular hayotini millatga bag‘ishlagan, ba’zan tarix sahnalaridan chetda ham qolgan, ammo xalq xotirasida ularning tutumi, niyati, mehnat uslubi yashab kelmoqda.

mehr bilan yondashuvi, davlat rahbarining dadil qarori — bularning barchasi tarixiy xotiraga tayanadi. Zamonaviy qahramon — eski obrazning yangi hayotdagi in’ikosi. U ham avvalgidek halol, jasur, sadoqatli, lekin u endi bilim, tamoyil va axloq bilan qurollangan. U endi biror yurtni zabt etmaydi, balki asraydi. U endi shon-shavkat uchun emas, kelajak uchun harakat qiladi. Bu o‘zgarishlar tarixiy ildizlar qayta unib chiqishi, yangilanishidir. Demak, qahramonlik zamonga qarab o‘z ifodasini yangilaydi, lekin mohiyatini yo‘qotmaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, to‘qima obraz va tarixiy shaxslar butun jamiyatning axloqiy, siyosiy, madaniy yo‘nalishiga ta’sir ko‘rsatadi. Farhod mehnat, Alpomish fidoyilik, Amir Temur kuch-qudrat, Jaloliddin Manguberdi vatanparvarlik timsoliga aylangan. Ular orqali jamiyat o‘zini anglaydi, me’yor belgilaydi, yo‘l topadi. Shuning uchun ularni unutish, faqat “muzey eksponati” sifatida ko‘rish o‘zlikni unutish demakdir.

Hozirgi o‘zgarishlar fonida bu timsollar qayta ko‘zdan kechirilmoqda. Ular bugungi islohotlar kontekstida qayta anglanyapti.



> **Ko‘pincha islohotlar jarayonidagi eng kuchli to‘qnashuv kishi qalbida sodir bo‘ladi. Bu insonning o‘z halovatiga, qulayligiga, komfort zonasiga qarshi kurashidir. Har qanday islohot insondan o‘zini o‘zgartirishni, mas’uliyatli bo‘lishni, tanlov qilishni, o‘z turmush tarzini ko‘zdan kechirishni talab qiladi. Bu kurash nafaqat siyosiy, balki ma’naviy maydon. Shu bois, bu maydonda kurashayotgan har bir odam qahramondir.**

## Qahramonlik zamonga qarab o‘z ifodasini yangilaydi, lekin...

Qay bir mutafakkir “Millat bu — xotira”, degandi. Chindan, shunday. Bu xotira timsollardan, arxetiplardan iborat bo‘ladi. Ushbu timsollar madaniy meros bo‘lish bilan birga, ruhiy-genetik kod, harakatlantiruvchi kuch, islohotlar sari siljishda ichki kompas vazifasini bajaradi.

Bugungi o‘zgarishlar davrida bu arxetiplar qayta jonlanyapti. Ular siyosiy doiralardan tortib, xalqning ongli xatti-harakatlarida, talqinlarida, talablarida o‘z ifodasini topmoqda. Qadimiy timsollar bugungi qarorlar, tanlovlar, bahslar, islohotlarga munosabatlarda yangidan hayot kechirmoqda. Ko‘hna ramzlar millat ongining chuqur qatlamida yashaydi. Ular bayon qilinmaydi — seziladi, avloddan avlodga ko‘chib, muayyan obrazlar, qahramonlar orqali yashaydi: Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Farhod, Rustam, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi...

Ular tarixiy shaxsmi, afsonaviy obrazmi — buning ahamiyati yo‘q. Ular xalq ongida qay ma’no bilan yashaydi, jamiyatga qanday yo‘l ko‘rsatadi, ularni eslaganda odamlar qanaqa ruhiy ahvolga tushadi — ana shu sezim muhim.

Bu obrazlarni biror tarixiy davrgagina xos deyish mutlaqo xato fikr, chunki xalq o‘z ruhiy harakatida bu obrazlarga muttasil ehtiyoj sezadi. Ular orqali o‘zining harakatini, qarorini, kurashini asoslaydi.

Masalan, oddiy bir ustaning mas’uliyat bilan qilgan ishi, bir maktab direktorining jamoasiga

Masalan, adolat timsoli faqat sud zalidagi qarorlar bilan cheklanmay, byurokratiyada, bandlik muammosida, uy-joy taqsimotida, oliy o‘quv yurtiga kirishda ham o‘zining hozirgi mazmunini olmoqdaki, demak, timsollar abadiy bo‘lishi uchun ular zamon bilan hamnafas bo‘lishi lozim. Zero, u tushunilganida emas, his qilinganida kuchli bo‘ladi.

## Jamiyatni o‘zgartirish jarayonining faol subyekti

Zamonaviy qahramonlikni to‘g‘ridan to‘g‘ri harakatdan ko‘ra ko‘proq ongli tanlovlar majmui sifatida talqin qilish mumkin. Masalan, xodimning poraga yo‘q deyishi, yoshlarning bilim orttirishga intilishi, oddiy fuqaroning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, har kuni halollik asosida o‘z kasbini sidqidildan bajarayotgan har bir kishining yondashuvi — bularning barchasi bugungi kun qahramonligidir. Bugun shunchaki “xizmat qilish” emas, balki “o‘z vazifasini vijdonan ado etish” aynan qahramonlikning zamonaviy shaklidir. Negaki, bugungi zamon rivojlanish ildiziga bolta urayotgan illatlarga qarshi kurashishda sovut kiygan jangchilar yordam bera olmaydi, irodali, jur’atli va aqlli shaxslar kerak.

Qahramonlikka endi ayrim kishilar bilan cheklangan fazilat deb qarash ham bir tomonlama yondashuvdir. Har kim o‘z sohasi, atrofidagi muhit, oilasi, mahallasi, kasbi doirasida qahramonlik fazilatini namoyon eta oladi. Qachonki, u biror masalada to‘g‘ri, lekin og‘ir yo‘lni tanlasa, aynan shu paytda u jamiyatni o‘zgartirish jarayonida faol subyektga aylanadi.

Bu fikr, ayniqsa, islohotlar jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday tizimli o‘zgarishlar insonlar, xususan, faol va mas’uliyatli fuqaro mavjudligiga bog‘liq. Zotan, o‘zbek xalqining tarixiy ongidagi qahramonlik ruhi shunchaki o‘tgan zamon lavhasi emas, balki hozirgi hayotga yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisadir. Bu ruh hozirgi o‘zgarishlarga ham tarixiy xotira, ham ichki quvvat manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Bugun bu ruhni yangicha talqin qilish, uni yangilangan ma’naviy paradigma asosida xalq hayotiga singdirish uchun ko‘plab amaliy ishlar qilinayotgani quvonarli.

Shu ma’noda, yaqindagina mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlari xotirasini abadiylashtirish uchun barpo etilgan majmua — “Millat fidoyilari” xiyoboni ochilishi haqida ham to‘xtalish o‘rinli. Mazkur monument xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga millatning asl qahramonlarini tanitish, bu fidoyiliklar mohiyatini anglatish va pirovardida aynan qahramonlik ruhini uyg‘otishga xizmat qiladi.

## Xalq islohotlarni emas, o‘z imkoniyatlarini kutib yashaydi

Qanchalik tizimli bo‘lmasin, har qanday islohotning muvaffaqiyati jamiyatdagi ichki ruhiy harakatga bog‘liq. Bu harakatni qonunlar emas, aynan ruhiyat boshqaradi. Bugungi o‘zgarishlarni faqat davlatning tashabbusi sifatida talqin qilish yetarli bo‘lmaydi. Ularning ortida uzoq yillar shakllangan ijtimoiy ehtiyoj, ruhiy buyurtma yotadi. Bu buyurtma xalqning o‘z o‘tmishidan, dardlaridan, orzularidan kelib chiqqan talabdir.

Xalq islohotlarni emas, aslida o‘zini kutib yashaydi — o‘zining imkoniyatli, adolatli, salohiyatli shaklini. Bu kutish birdan paydo bo‘lmadi, bu qahramonlik ruhining hozirgi zamondagi bir ko‘rinishidir. Bunday qahramonlik shunday ijtimoiy holatlarda mustahkam bo‘ladi — uni xalq ichki tayyorgarlik bilan kutib oladi, amalga oshiruvchi davlat esa buni to‘g‘ri anglagan holda shunga monand harakat qiladi. Shunday ekan, islohotlar kontekstida qahramonlik bevosita o‘zgarishlarga ichki tayyorgarlik, uni amalga oshirishga bo‘lgan shijoat, mas’uliyat, ishonch, kerak bo‘lsa, qarshiliklarga bardosh berishdir.

Zamonaviy, tez o‘zgaruvchan muhitda harakat qilishning o‘zi yetarli emas, qaror qabul qilish zarur. Bu qarorlar ko‘pincha ijtimoiy qarshiliklar, an’anaviy qarashlar, ilgari o‘rgatilgan dogmalar bilan to‘qnashadi. Ammo aynan shunday pallalarda islohotchi — oddiy fuqaro bo‘ladimi, rahbar bo‘ladimi — o‘zining qahramonlik qiyofasini topadi.

U endi qilich emas, prinsip ko‘targan jangchidir. Bu jang maydonida shovqin yo‘q, lekin har bir qaror, har bir imzo ortida o‘ziga xos kurash yotadi. To‘siqlarni qisqartirib, imkoniyatlarni kengaytirishga uringan bir rahbar, poraga qarshi ochiq pozitsiyada turgan bir xodim, qonunga muvofiq fikr bildirgan fuqaro — bularning har biri shu yo‘ldagi kurashchilardir. Ularning kurashi ehtimol jamoat oldida sodir bo‘lmas, biroq ko‘pincha kabinet ichida, ichki konfliktda, xatti-harakat ustuvorligida kechadi. Bu zamonaviy qahramonlar ko‘rinmas, ammo ijtimoiy strukturani tubdan o‘zgartirish kuchiga ega.

Ko‘pincha islohotlar jarayonidagi eng kuchli to‘qnashuv kishi qalbida sodir bo‘ladi. Bu insonning o‘z halovatiga, qulayligiga, komfort zonasiga qarshi kurashidir. Har qanday islohot insondan o‘zini o‘zgartirishni, mas’uliyatli bo‘lishni, tanlov qilishni, o‘z turmush tarzini ko‘zdan kechirishni talab qiladi. Bu kurash nafaqat siyosiy, balki ma’naviy maydon. Shu bois, bu maydonda kurashayotgan har bir odam qahramondir.

## Sukutdagi harakat, harakatdagi shiddat

Dunyo bugun baland ovoz, da’volar va shiorlar bilan to‘lgan. Ammo eng muhim o‘zgarishlar ko‘pincha sukutda ro‘y beradi. Qahramonlik ham aynan shunday: u endi inson botinida, ongida va irodasida pishib yetiladi. Bu har qanday sharoitda insoniy fazilatlarni yo‘qotmaslik, sharoitga qarab emas, e’tiqodga qarab yashash jasoratidir.

Tarixda qahramonlik ko‘p hollarda voqealar bilan belgilanardi, bugun esa u qarorlar bilan o‘lchanmoqda. Qiyin, biroq to‘g‘ri yo‘lni tanlash qarori, boshqalar uchun manfaatli ishni qilish qarori…

Qahramonlik endi faqat o‘tmishni faxr-la eslash bilan chegaralanmaydi. Bugungi qahramon kishilarga o‘rnak bo‘libgina qolmay, ularga tirgak, tayanch bo‘la oladigan insondir. Demak, bizga bugun timsollar bilan birga tutumlar, sobit yo‘lboshchi bilan birga mana shu yo‘ldan dadil odimlaydigan mas’uliyatli odamlar ham kerak. Biz esa, ustozim aytganidek, ularni taniy bilishimiz, kezi kelsa, ulardan biriga aylanishimiz zarur.



# “VATAN TAYANCHI” – NAVQIRON AVLOD ISHONCHI

**Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilayotgan yuksak e’tibor davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati bu borada ulkan ahamiyat kasb etib, minglab yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat kabi ezgu g‘oyalar atrofida jipslashtirmoqda.**



**Akobir NURILLAYEV,**
**Mudofaa vazirligi huzuridagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati rahbari, podpolkovnik**

“Vatan tayanchi” harakatini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda jismonan va ma’nan barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning qalbida yurtga mehr hamda sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, milliy qadriyatlarimizga, armiyamizga nisbatan hurmat hissini shakllantirishdan iborat. Bu sa’y-harakatlar davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu maqsadda davlatimiz rahbarining 2022-yil 2-martdagi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari rahbarligida 20 nafardan o‘quvchi-yosh “Vatan tayanchi” otryadlariga a’zo qilinmoqda. Harakat qamrovini yanada kengaytirish maqsadida Prezident, ijod, sport va ixtisoslashtirilgan maktablarda ham “Vatan tayanchi” otryadlarini tashkil etish belgilandi. Bu esa, o‘z navbatida, turli yo‘nalishlardagi iqtidorli yoshlarni vatanparvarlik g‘oyalari ostida birlashtirishga xizmat qilmoqda.

Har o‘quv yilida Mudofaa vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi hamda O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti bilan hamkorlikda “Vatan tayanchi” harakati otryadlarini shakllantirish, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda a’zolarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda.



Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 10 ming 27 ta umumiy o‘rta ta’lim hamda 210 ta Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan va sport maktabida “Vatan tayanchi” otryadlari tashkil etilgan. Bugungi kunda ushbu otryadlarga 200 mingdan ziyod o‘quvchi qamrab olingan bo‘lib, ularning 141 ming 848 nafarini o‘g‘il bolalar, 62 ming 169 nafarini esa qizlar tashkil etadi. Bu raqamlar harakatning yoshlar orasida tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi.

Qarorda “Vatan tayanchi” otryadlarining asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan bo‘lib, ular tomonidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qo‘mondonlik vakillari, yoshlar hamda uch avlod vakillari ishtirokida muntazam uchrashuvlar o‘tkazilib, ularda yoshlar vatanparvarlik, qahramonlik an’analari bilan yaqindan tanishadilar. Umumta’lim maktablarida va “Vatanparvar” tashkilotining o‘quv-sport texnika klublarida amaliy va texnik yo‘nalishlardagi turli to‘garaklar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu to‘garaklar yoshlarning texnik bilimlarini oshirishga va kasb-hunarga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Otryadlar tomonidan sport va harbiy-sport musobaqalari muntazam ravishda tashkil etiladi. Buyuk ajdodlarimiz xotirasini yod etish, ularning boy merosini o‘rganish maqsadida tarixiy obidalar, kutubxonalar, muzeylar va teatrlarga tashriflar uyushtiriladi. Yurt ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan vatandoshlarimizni xotirlash, ularning jasoratlarini yosh avlod ongiga singdirish maqsadida faxriylar va nuroniylar bilan uchrashuvlar o‘tkazish an’anaga aylangan.

“Ezgu amal” shiori ostida saxovat karvonlari tashkil etilib, otryad a’zolari keksalar va ko‘makka muhtoj fuqarolar holidan xabar olib, ularga amaliy yordam ko‘rsatmoqda. Bu esa yoshlar qalbida mehr-oqibat, saxovatpeshalik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida turli viktorinalar, tanlovlar, “Zakovat” o‘yinlari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, kitobxonlik kechalari va konsert dasturlari muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda “Vatan tayanchi” harakati otryad a’zolariga beriladigan 5 foizli imtiyozli tavsiyanomalar ham o‘z samarasini bermoqda.

Harakat a’zolari orasida o‘qishda va sportda tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 298-maktabning 11-sinf o‘quvchisi, “Vatan tayanchi” otryadi a’zosi Abbosxon Abzalxonov 2023-yil Qozog‘istonda o‘tkazilgan “Aybin-23” xalqaro yoshlar harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining robototexnika yo‘nalishida faxrli 1-o‘rinni egalladi. U 2024-yilda mudofaa sohasida o‘tkazilgan “MSITIF” musobaqasida ham 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Abbosxon AQSHdagi “WINGATE” xalqaro universitetiga muddatidan oldin o‘qishga kirish uchun 27 ming dollarlik grant yutib olgan.

Yana bir iqtidorli yosh — Toshkent viloyati Angren shahridagi 19-maktabning 10-sinf o‘quvchisi, “Vatan tayanchi” harakati a’zosi Ulug‘bek Ahmadaliyev 2023-2025-yillarda karate bo‘yicha faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, hozir uch karra Osiyo chempioni degan yuksak nomga sazovor bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati qisqa vaqt ichida yoshlar hayotidan mustahkam o‘rin egallab, ularni yurtga muhabbat, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashda, jismonan va ma’nan yetuk insonlar qilib kamol toptirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu harakat kelgusida ham o‘z safini kengaytirib, yosh avlodning chinakam tayanchi va suyanchiga aylanishiga ishonchimiz komil.

Festival





# Buxoro MO‘JIZASI

## XALQARO IPAK VA ZIRAVORLAR FESTIVALI XALQIMIZNING ASRIY AN’ANALARI NAMOYISHI

**O‘tgan hafta ko‘hna va hamisha navqiron Buxoro shahri navbatdagi XXI Ipak va ziravorlar festivaliga mezbonlik qildi. Shu kunlari butun shahar yurtimiz hunarmandlari qo‘lida jilo topgan atlas-u adras, beqasam-u sakkiztepkilarga burkandi. Atrofni jannatmonand zaminimizda unib o‘sgan zira-yu zarchava, qalampirmunchog‘u mushklarning bo‘yi tutdi.**

Buxoroning qadimiy timu toqlarining birida kulolchilik, temirchilik, gilamdo‘zlik, kashtachilik, kandakorlik, miniatyura san’ati bo‘yicha mahorat darslari uyushtirilgan bo‘lsa, boshqalarida yurtimizning turli viloyatlaridan kelgan folklor dastalari san’atini namoyish etdi.

Qisqasi, uch kun qadimiy shaharda o‘ziga xos bayram muhiti hukm surdi. Shaharga kelganlar yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va to‘kislikka havas qildi.

— Festival nomining o‘ziyoq ramziy ma’nolarga ishora qiladi, — deydi Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori Halim To‘rayev. — Buyuk ipak yo‘lida shakllangan savdo aloqalari xalqlar o‘rtasida o‘zaro madaniy va ilmiy mushtaraklikka, Sharq Renessansiga asos solgan edi. Keyinchalik Yevropada Sharqdan arzon ziravor olib kelishga urinishlar dengiz yo‘lining kashf etilishi va Yevropa taraqqiyotiga sabab bo‘lgan. Demak, ikki qit’aning taraqqiyot ildizlarini bir nuqtada jamlagan bu festival yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessansi yo‘lidagi savdo va madaniy aloqalar kengayishidagi o‘ziga xoslik, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### Turizm imkoniyatlarining o‘ziga xos ko‘zgusi

Muhim dalil: festivalda o‘ndan ortiq xorijiy mamlakatdan 82 hunarmand va rasmiy mehmon qatnashdi. Bu faqat rasman taklif etilganlar, xolos. Qolaversa, ayni paytda bahorgi sayyohlik mavsumi yakuniga yetayotganiga qaramay (Buxoroning tabiiy iqlimidan kelib chiqib sayyohlar asosan, mo‘tadil fasllarda, ya’ni bahor va kuzda keladi), Buxoroda 20 mingdan ortiq xorijlik bo‘lib turibdi. Bu esa bevosita festivalni ko‘rish istagida sayyohlarning safar muddatini uzaytirganini ko‘rsatmoqda.

— Buxoroga besh yil ilgari kelganman. Bu gal sayohatimni atay festival kunlariga to‘g‘riladim, — deydi Amerikalik Devid Karter. — Shu besh yilda shahringiz butunlay boshqacha qiyofaga kirib, jozibadorligiyu zamonaviyligi ortibdi. Festival bahonasida o‘zbek hunarmandchilik an’analari bilan yaqindan tanishib, folklor san’atidan bahramand bo‘ldim.

Turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizda ulkan o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Xususan, qator davlat fuqarolariga O‘zbekistonga vizasiz kirish imkoniyati yaratilgani, sayyohlar uchun turli festivallar o‘tkazilishi va boshqa ko‘ngilochar turizm xizmatlari ko‘rsatilishi keluvchilarning keskin ko‘payishiga zamin hozirlamoqda.

Buxoroda xalqaro darajadagi Wyndham, Mercure, Ramada, Sahid nomli mehmonxona brendlari ish boshladi. Zamonaviy restoranlar, gastronomik, qishloq va sahro turizmi kabi xizmatlar ko‘paydi. Buning natijasida so‘nggi besh yillikda Buxoroga sayyohlar kelishi uch barobar oshdi.

Keyingi yillarda Buxoro shahriga Qohira (Misr) va Bamako (Mali) shaharlari qatorida “Islom olami madaniyati poytaxti”, “Butunjahon hunarmandlar shahri” maqomlari berilgani, “Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik” yo‘nalishi bo‘yicha Buxoro deklaratsiyasi qabul qilingani, Poyi kalon majmuasi “Shanxay hamkorlik tashkilotining 8-mo‘jizasi” sifatida e’tirof etilgani, shuningdek, mashhur The New York Times nashri tomonidan Buxoro shahri 2025-yilda tashrif buyurish uchun eng yaxshi 52 ta manzil ro‘yxatiga kiritilgani sohadagi islohotlar ijrosining xalqaro e’tirofidir.

### An’ana va san’at uyg‘unligi

Tadbirning ilk kuni “Ark” majmuasidan “Labi hovuz” majmuasigacha qatnashchilarning “Mo‘jizalar karvoni” tantanali yurishi bilan boshlandi. Karvonga mahalliy aholi, xorijlik sayyohlar ham qo‘shildi. Folklor jamoalarining chiqishi, ipak va milliy hunarmandchilik mahsulotlari hamda ziravorlar savdosi ko‘rgazmasi, zardo‘zlik, temirchilik, ipak gilamlari, kashtado‘zlik, kandakorlik, badiiy va miniatyura san’ati mahorat bilan namoyish etildi.

Festival doirasidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, “Palov sayli” milliy taomlar tanlovi, mahalliy va xorijiy dizaynerlar ishtirokidagi maxsus modalar namoyishi, tasviriy va amaliy san’at milliy galereyasi hamda suratkashlar ko‘rgazmasi ham o‘tkazildi. Milliy va sport o‘yinlari namoyishi festivalning yanada qizg‘in o‘tishiga hissa qo‘shdi. Buxoro ramziga aylangan Minorai kalon qarshisida buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning Rubik kubiklaridan mohirlik bilan ishlangan surati namoyish etildi. Bu san’at asari nafaqat noan’anaviy ijod namunasi, balki ulug‘ tabibning bebaho merosiga chuqur hurmat ifodasidir. Kun davomida chustlik pichoqchilar, rishtonlik kulollar, marg‘ilonlik atlas va adras to‘quvchilar, buxorolik zardo‘z va kandakorlar, surxondaryolik kashtado‘zlar, tojikistonlik va qirg‘izistonlik tikuvchi-dizaynerlar, chevarlar mahsulotlari bilan qatnashdi. Mohir ustalar yasagan betakror san’at asarlari, serquyosh o‘lkamizning shifobaxsh o‘simliklari va ziravorlari, xattotlar va musavvirlar yaratgan qo‘lyozma kitoblar va miniatyuralar xorijlik mehmonlar e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Katta miqyosda e’tirof etilib, 21-marotaba o‘tkazilayotgan an’anaviy xalqaro “Ipak va ziravorlar” festivali hunarmandchilik, madaniyat va san’at yo‘nalishlaridagi an’analarni qayta tiklashga xizmat qilishi bilan birga aholi va sayyohlarning madaniy hordiq chiqarishi yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ldi.



### Festival xorijiy mehmonlar nigohida

**Go‘khan SHENER** *(Turkiya):*

— Shaharning tarixiy qismidagi betakror me’moriy obidalarni hayrat bilan tomosha qildim. Tasodifni qarangki, safarim “Ipak va ziravorlar” festivaliga to‘g‘ri kelibdi. Betakror hunarmandchilik mahsulotlari, folklor qo‘shiqlari menda katta taassurot qoldirdi. O‘zbek musiqasi biz uchun ham qadrli. Ularda milliy musiqamiz bilan qandaydir uyg‘unlik bor. Imkon tug‘ilsa, kelgusi festivalga, albatta, kelaman.

**Zebo RAZAVI** *(Eron):*

— Festivalda ipak mahsulotlari bilan ishtirok etyapmiz. Hunarmandlar uchun bu yerda barcha sharoit muhayyo. Mahsulotlarimizni sotish bilan birga boshqa kasbdoshlarimiz bilan tajriba ham almashyapmiz.

**Tuarivadi KUTILAD** *(Tailand):*

— Festival menga juda yoqdi. O‘zbek adraslaridan xarid qildik. Musiqalariga raqs tushdik. Aslida, bu yerga faqat tarixiy obidalarni ko‘rish uchun kelgandik. Festival bahonasida sayohatimiz yanada maroqli bo‘ldi.

Xalqimizning asriy urf-odatlari, milliy hunarmandchilik va amaliy san’ati, musiqa, raqs, xalq og‘zaki ijodi, qisqasi, boy madaniy merosimizni saqlash, tiklash, yurtimiz va xorijda keng targ‘ib etishdek yuksak maqsadni o‘zida mujassam etgan tadbir uch kun mobaynida ishtirokchilarga iliq kayfiyat ulashdi. Xorijlik mehmonlar va sayohatchilar uchun mehr va madaniyat rishtalarini mustahkamladi. Barcha jarayon mahalliy va xorijiy telekanallar orqali onlayn yoritildi. Yopilish marosimiga bag‘ishlangan gala konsertda mamlakatimizning taniqli san’atkorlari o‘z chiqishi bilan qatnashdi. Shuningdek, festivalda namunali ishtirok etganlar orasidan turli nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblar aniqlanib, tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

**Akbar RUSTAMOV,**
**Zulfizar MAVLONOVA**

Bugunning gapi

# YANGI ELEKTRON PLATFORMA

## UNDA DARAXT QAYERDA EKILAYOTGANI, MABLAG‘ QANDAY SARFLANAYOTGANI MA’LUMOTI AKS ETADI

**Bugun ekologik xavfsizlik va “yashil” energetikaga barqarorlik va raqobatbardoshlik omili sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda ham ushbu masala davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Soha rivoji davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida.**

Xususan, joriy yil 27-yanvar kuni “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot yili” davlat dasturi loyihasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz bu boradagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab bergan edi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushini 26 foizga yetkazish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali resurslarni iqtisod qilish shular jumlasidan.

Asosiy maqsad — iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish. Bu vazifalar davlatimiz rahbarining joriy yil 30-maydagi “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan mustahkamlandi.

Yashillik, ekologik barqarorlik, atrof-muhit musaffoligini ta’minlash bir yillik tadbir emas, “yashil” kelajak ko‘zlangan umummilliy harakatlardir. Zero, “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida har yili 200 million tup daraxt ekilmoqda. O‘tgan uch yilda 698 ta bog‘ va 316 ta jamoat parki tashkil etildi. Orol dengizining qurigan tubidagi 2 million gektardan ortiq maydonda butazor barpo etildi.

Bunday xayrli ishlarni davom ettirgan holda joriy yilda 18 ta o‘rmon xo‘jaligi tashkil etildi. Ularda “ilm — loyiha — amaliyot” tamoyili asosida genetik seleksiya ishlari kuchaytirilib, urug‘chilik laboratoriyalari, intensiv tajriba uchastkalari va onalik plantatsiyalari yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu xo‘jaliklarda shu yilning o‘zida 123 million tup ko‘chat tayyorlanadi. “Yashil olam” platformasi ishga tushirilib, ularni onlayn sotib olish imkoniyati yaratiladi.

Farmonda 2026-yil 1-yanvardan boshlab daraxt va buta ko‘chatlarining ko‘karuvchanligi, yashovchanligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi. Xususan, urug‘chilik laboratoriyalarida hududlarning iqlim sharoitiga mos o‘simlik turlaridan onalik plantatsiyalari tashkil qilinadi, davlat o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan yetkazib berilayotgan ko‘chatlar hajmi 2 baravar oshiriladi.

Eng muhimi, o‘rmon fondi yer maydonlari alohida muhofaza etiladi va ularning toifasini o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘tgan davrda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida o‘ziga xos tizim yaratildi. Hujjatga ko‘ra, bu boradagi ishlar yanada jadallashtiriladi. Jumladan, 2025-yil 1-oktabrdan boshlab “Yashil makon” umummilliy loyihasida jamoatchilik ishtirokini oshirish, “Yashil makon” elektron platformasida ochiqlikni ta’minlash va raqamlashtirishga qaratilgan mexanizmlar joriy qilinadi.

— Farmonda aholi tashabbusi bilan daraxt ekilishi mumkin bo‘lgan aniq hudud, suv ta’minoti, keyinchalik parvarish qilish imkoniyati va daraxtlarning turlari ko‘rsatilishi juda muhim ahamiyatga ega, — deydi O‘rmon xo‘jaligi agentligi mas’ul xodimi Dilnoza Jo‘rayeva. — Shuningdek, o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesgan yoki yo‘q qilgan shaxslar tomonidan kompensatsiya sifatida ekilgan daraxt va buta ko‘chatlari hisobini yuritish tizimi joriy etiladi.

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga to‘xtalib o‘tish zarur. “Yashil makon” umummilliy loyihasiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan qilinadigan ishlar jamoatchilikka “har bir tiyin sarflanishini kuzatish” tamoyili asosida onlayn yetkaziladi. Daraxt va butalarni kesish uchun ruxsatnoma berish yuzasidan murojaat qilgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumot, ko‘chirilishi yoki kesilishi taklif etilayotgan daraxt va ko‘chirish sababi, aniq manzili, joylashuvi, foto va videotasvirlari aks ettiriladi.

Daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesgan jismoniy va yuridik shaxslar, ushbu huquqbuzarliklar va ular yuzasidan ko‘rilgan choralar bo‘yicha “Yashil makon” elektron platformasiga doimiy ravishda ma’lumotlar kiritib boriladi.

Shu bilan birga, hujjatda malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham belgilanmoqda. 2025-2026-o‘quv yilidan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University) va “yashil” texnikumlarda dars jarayonlari dual ta’lim shaklida yo‘lga qo‘yiladi.

Ilmiy-amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda botanika va gendrologiya bog‘lari barpo etiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, har bir ekilgan daraxt oldinga tashlangan qadam, har bir saqlab qolingan “yashil” hudud ertangi kun uchun investitsiyadir. Prezidentimiz tomonidan imzolangan mazkur hujjatlar ana shu maqsadlarga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

**Lutfulla SUVONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Islohotlar amalda

# TADBIRKORLIK VA SANOAT TARMOQLARI RIVOJI

## IQTISODIYOT VA EKSPORT SALOHIYATINING MUHIM OMILI

**Yurtimizning barcha hududida tashkil etilayotgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari import qilinayotgan mahsulotlarni mahalliylashtirish, sanoatni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o‘rinlari ochishda yirik drayverga aylandi.**



Jumladan, Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan 51 ta sanoat zonasida 2025-yilning shu davriga qadar 58,2 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Termiz shahridagi “Tinchlik” yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida zamonaviy talablarga javob beradigan inshootlar qad rostladi.

Mukammal me’moriy yechim asosida bunyod etilgan tadbirkorlik zonasi nafaqat faoliyat yuritayotganlar, balki kelib ketuvchilar uchun ham o‘zgacha ilhom bag‘ishlaydi. Sanoat zonasi yosh, faol biznes vakillarini bag‘riga oldi. Ana shunday tadbirkorlardan biri — Jasurbek Eshnazarov. U “Tinchlik” yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasidagi 3-lotda metallarga ishlov berish loyihasini bir yil muqaddam yo‘lga qo‘ygan edi. Mahsulotga talab ortishi va buyurtma kelib tushishi natijasida tibbiyot jihozlari ishlab chiqara boshladi. Bu orqali yangi ish o‘rinlari ochilib, foyda miqdori ham oshdi.

— Bu sanoat zonasida bir yildan buyon ishlaymiz. 2,5 milliard so‘mlik kredit oldik va faoliyatimizni boshladik. Korxonamiz tibbiy anjomlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Hozir 20 turdagi tibbiy uskunalar ishlab chiqaryapmiz. Shu bilan birga, buyurtma asosida temirdan jihozlar tayyorlaymiz, — deydi tadbirkor Jasurbek Eshnazarov.

Tadbirkorlik zonasidagi qulay imkoniyat va imtiyozlar natijasida qiymati 3 milliard so‘mga teng polietilen quvur ishlab chiqarish korxonasi ham ishga tushirildi.

— Joriy yil fevralida ish boshladik. Hozir 6 kishini ish bilan ta’minlaganmiz. Har kuni 1500 dan 3000 metrgacha quvur ishlab chiqaryapmiz. Korxonamizda 8 turdagi quvur tayyorlanadi. Uch xil xomashyodan foydalaniladi, — deydi tadbirkor Anvar Tursunov.

Shu o‘rinda hududda faoliyat yuritayotgan loyihalarga e’tibor qaratsak. Ayni paytda 15 ta loyiha qurilish materiallari, 10 tasi kimyo sanoati, 9 tasi mebel, 5 tasi esa oziq-ovqat va yana 3 tasi boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda eksport qilishga ixtisoslashgan.

Sanoat zonasidagi 27-lotda tadbirkor Fotima Annayeva faoliyat yuritadi. Loyiha qiymati 2 milliard 500 million so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonada ko‘rpa, yostiq va turli to‘shamalar tikiladi.

— Faoliyatni boshlaganimizga atigi 2 oy bo‘ldi. 20 kishini ish bilan ta’minladik. Kiyim-kechak tayyorlaymiz. 20 ta tikuvchilik uskunasi va boshqa jihozlar bor. Hozircha ichki bozorni ta’minlayapmiz. Kelgusida qo‘shni davlatlar bilan savdo shartnomalarini imzolash niyatidamiz, — deydi Fotima Annayeva.

Guvohi bo‘lganingizdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida zamonaviy korxonalarni tashkil etishda bu kabi kichik sanoat zonalarining o‘rni katta. Chunki bu yerda zarur sharoit mavjud.

— Viloyatdagi sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya tizimi samaradorligini oshirish, eksportbop va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi loyiha tashabbuskorlarini jalb etish, tadbirkorlar bilan yelkama-yelka turib, loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish uchun yaqindan ko‘maklashishga alohida e’tibor qaratilmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati hokimligining “Kichik, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiya”si bosh mutaxassisi Jasur Haydarov. — Viloyatdagi barcha sanoat zonasi infratuzilma bilan ta’minlangan. Yo‘l, suv, elektr energiyasi, gaz tarmog‘i to‘liq o‘tkazilgan. Bu tadbirkorlarning keng ko‘lamda faoliyat boshlashiga imkon yaratadi. Ishbilarmonlar yer solig‘idan ozod qilingan. Bu yerda ishlab chiqariladigan mahsulotlar ichki bozor hamda qo‘shni davlatlarga ham chiqarilmoqda. Kelgusida Yevropa davlatlari bilan hamkorlik o‘rnatish niyatidamiz. Joriy yil yakuniga qadar sanoat ipotekasi asosida 5 ta sanoat zonasi tashkil etiladi. Ularda umumiy qiymati 3,9 million dollarga teng 64 ta loyiha ish boshlaydi. Bu esa vohaning sanoat salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.



2025-yilning yanvar-aprel oylarida Surxondaryoda 4 trillion 578,7 milliard so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 foiz ko‘p. Viloyatda bu yil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatini 17,4 trillion so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday o‘sishda sanoat zonalaridagi loyihalarning ham alohida o‘rni bor.

— Prezidentimizning “Surxondaryo viloyatida yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan 40 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasidagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan, — deydi Surxondaryo viloyati hokimligi “Kichik, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiya”si direktori o‘rinbosari Bobur Orolov. — Bu esa hududda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratish, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Sanoat zonalari tashkil etilganiga hali ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, ularning aholi turmush darajasini oshirishdagi ahamiyati yaqqol sezilmoqda. Qisqasi, bugun mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlari qancha rivojlansa, davlatning iqtisodiy va eksport salohiyati shunchalik ortadi, xalqimizning farovonligi yanada yuksaladi.

**Sarvar TO‘RAYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Qabul – 2025

# YOSHLARNI BILIMGA CHORLASH

## OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA QABUL JARAYONIDA HAM O‘Z AKSINI TOPMOQDA

**Bugungi kunda mamlakatimizda soni 200 dan oshgan oliy ta’lim muassasalarining aksariyati nodavlat ta’lim dargohlari hamda nufuzli universitetlar filiallaridir. Nodavlat sektorning rivojlanishi, raqobat muhiti shakllanayotgani fuqarolarning ta’lim olish huquqini kafolatlashga xizmat qilyapti. E’tiborli jihati, hozir yoshlarimiz xorijga borib ta’lim olishdan ko‘ra, o‘zimizda, eng zamonaviy bilim yurtlarida o‘qishni afzal ko‘rmoqda. Boisi, bu yerda yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar chet elnikidan deyarli farq qilmaydi. Shu kabi joziba va imij tufayli o‘g‘il-qizlarimizning oliy ta’limga qamrov darajasi to‘qqiz foizdan qirq ikki foizga ko‘tarildi.**



**Ravshan DO‘SMATOV,**
**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent**

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni soha taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Chunki konsepsiyada mutaxassislarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar bo‘lishiga qaratilgan choralar belgilangan. Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, infratuzilmasini yaxshilash, oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish nazarda tutilgan.

Zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish, o‘z navbatida, oliy ta’lim tizimiga innovatsiyalar kiritishni talab qilmoqda. Globallashuv sharoitida mamlakatimiz kelajagini tashabbuskor, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yana bir eng muhim jihat shundan iboratki, konsepsiya asosida oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasi kengaytirildi, amaliyotga raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalari keng joriy etilmoqda.

### Raqamlashtirish sifatni yaxshilab, shaffoflikni ta’minlaydi

Bugun zamonaviy axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Qolaversa, bu jarayon barcha sohalar taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, “HEMIS” axborot tizimi oliy ta’lim jarayonlarini oson boshqarishga, ta’lim sifati yuksalishi hamda shaffoflikni ta’minlashga yordam bermoqda. Masalan, Toshkent davlat texnika universitetida ushbu tizim joriy etilishi natijasida statistik hisobotlar, guruh jurnallari, o‘zlashtirish qaydnomalari, dars va imtihon jadvallari, diplom hamda akademik ma’lumotlarni bevosita kuzatish imkoniyati yaratildi.

Oliy ta’lim tizimida bosqichma-bosqich joriy etilayotgan raqamli yondashuvlar 2024/2025-o‘quv yilida sezilarli natija berdi. Jumladan, “EduBilling” axborot tizimi orqali talabalar uchun to‘lov-kontrakt, qayta o‘qish va talabalar turar joylari bilan bog‘liq shartnomalar elektron shaklda rasmiylashtirildi. Xususan, to‘lov-kontrakt asosida o‘qish, qarzdor fanlarni qayta o‘qish istagini bildirgan talabalar, shuningdek, talabalar turar joylariga joylashish bo‘yicha minglab shartnoma onlayn shakllantirildi. Bundan tashqari, magistratura, ikkinchi mutaxassislik, o‘qishni ko‘chirish va tiklash kabi yo‘nalishlarda arizalar yuborish to‘liq raqamlashtirilib, elektron tarzda qabul qilindi.

O‘rganish va tahlillar ko‘rsatmoqdaki, yoshlar, ota-onalar va keng jamoatchilik bu kabi raqamlashtirish ishlaridan mamnun. Boisi, ular vaqtini, mablag‘ini tejab, sifatli davlat xizmatlaridan bahramand bo‘lyapti. Endilikda yoshlar oliy ta’lim muassasasiga hujjat topshirish uchun yo‘l bosib, vaqt va mablag‘ sarflab o‘tirmaydi. Shundoqqina onlayn platformaga kiradiyu, o‘zi xohlagan yo‘nalishga ariza topshiradi. So‘ng yana o‘z ustida ishlashni davom ettiradi.

Agar abituriyentning fikri o‘zgarib qolsa, arizani olib, yana boshqasiga yo‘naltirishi mumkin. Xullas, o‘g‘il-qizlar uchun shu qadar keng imkoniyatlar yaratilganki, ularning hammasi eng zamonaviy fikrlovchi sifatli kadrlarni yetishtirishga qaratilgan. Muhimi, shaffof va haqqoniy tizim yoshlar orzulariga qanot bag‘ishlamoqda.

Joriy yilning 5-iyunidan davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2024-2025-o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga qabul boshlandi.

**O‘tgan yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilgan yangi tartiblar bu yil ham davom ettiriladi. Ya’ni qabul ikki bosqichda — “Avval test, keyin tanlov” tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko‘ra, abituriyentlar avval test sinovlarini topshiradi, so‘ng o‘z natijalariga qarab 15 kun ichida oliy ta’lim muassasasi, yo‘nalish va o‘qish shaklini tanlaydi. Ushbu tartib abituriyentlarga o‘z bilim darajasiga mos ravishda yo‘nalish tanlashda adolatli imkoniyat yaratadi.**




Yana bir gap. Endilikda davlat granti to‘rt yilga bir marta emas, balki har o‘quv yili uchun qayta ajratiladi. Ya’ni talaba o‘qish davomida yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichini saqlab qolsa, grant asosida ta’lim olishni davom ettiradi. Demak, talaba o‘z ustida muntazam ishlab, bilimini oshirib boradi. Natijada talabalar o‘rtasida ilmiy va amaliy faollik yuksaladi, sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi. Yuqori reytingga erisha olmaganlar esa to‘lov-shartnoma asosida tahsilni davom ettiradi. Albatta, ular keyingi o‘quv yilida pishiq-puxta o‘qib, grant asosidagi ta’limga o‘tishlari mumkin.

Shuningdek, **joriy yilgi qabulda II va III guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar testda maxsus sharoitlar, uzaytirilgan vaqt va yordamchi vositalar bilan ta’minlanadi. Ular uchun alohida kvotalar mavjud.**

**Yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda alohida kvotalar asosida o‘qishga qabul qilinadi.**

**Harbiy xizmatchilarning farzandlari, chekka hududdagi maktab bitiruvchilari, xalqaro olimpiada g‘oliblari, imtihonsiz qabul qilish uchun sertifikatga ega bo‘lganlar tegishli hujjatlar asosida imtiyozlar oladilar.**

**Abituriyentlarda C1 darajadagi til bilish sertifikati mavjud bo‘lsa, tegishli fan bo‘yicha test topshirishdan ozod qilinadi yoki imtihonda maksimal ball beriladi.**

Bu yilgi o‘zgarishga ko‘ra, chet til birinchi fan bo‘lgan, chet til asosiy fandan tanlangan yo‘nalishlar uchun abituriyentda til sertifikati majburiy bo‘ladi.

**Bu yilgi qabulning yana bir e’tiborli jihati shuki, sirtqi ta’lim shakli to‘xtatildi. Endi talabalar, asosan, kunduzgi, kechki va masofaviy shakllarda o‘qishi mumkin.**

Kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun kontrakt to‘lovini davlat tomonidan qoplab berish tizimi saqlab qolindi. Ushbu tizim “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali baholanadi.

Umuman olganda, yurtimizda oliy ta’limga qabul tizimi bosqichma-bosqich yangilanib bormoqda. Bu yangilanishlar yoshlarga qulaylik yaratish barobarida ularni ilmga undayotgani bilan ahamiyatlidir.

---

**Issiq jonning isitmasi bo‘ladi. Kimdir kunda-kunora tibbiyot muassasalariga murojaat qilishi, ba’zan esa tez tibbiy yordamga zarurat sezishi tabiiy. Tez tibbiy yordam sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘ta muhim vaziyatlarda odamlar hayotini saqlab qolish va sog‘lig‘ini yaxshilashda asosiy rol o‘ynaydi. Holatlar turli bo‘lishi mumkin, ammo soha xodimlari oldiga qo‘yilgan talab va vazifa bir xil: tibbiy yordam tez, samarali va o‘z vaqtida ko‘rsatilishi kerak. Zero, inson hayoti, yashash huquqi bilan bog‘liq masalada sustkashlikka yo‘l qo‘yish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.**




Sog‘lom hayot

# INSON SALOMATLIGI, YASHASH HUQUQINI TA’MINLASH

## BUNDA TEZ TIBBIY YORDAMNING O‘RNI ALOHIDA

Shu bois, bugun yurtimizda mazkur hayotiy soha butunlay transformatsiya qilinib, tizimning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda uning faoliyatini yanada takomillashtirish borasida salmoqli ishlar qilindi. Bunda davlatimiz rahbarining 2022-yil 16-iyundagi tegishli qarori muhim ahamiyat kasb etayotir. Ushbu hujjatga ko‘ra, yurtimizda Respublika tez tibbiy yordam markazi tashkil etilib, uning yagona vertikal boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yildi. Sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zarur uskunalar bilan ta’minlandi.

Keyingi yillarda tez yordamda bitta chaqiriqqa dori-darmon uchun ajratilayotgan mablag‘ miqdori sezilarli darajada ortdi. Qolaversa, so‘nggi ikki yilda markazning 14 ta hududiy filiali, 165 dan ziyod stansiyasi, qariyb 65 ta podstansiya va 1440 ga tayanch punkti tashkil etildi. Tez tibbiy yordam brigadalari soni 2850 tadan oshdi. 2022-yildan buyon tizimga tegishli 70 ga yaqin bino va inshoot qurilib yoki ta’mirlandi.

Sohada avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilishi natijasida chaqiriqlarga yetib borish vaqti keskin qisqardi. Bundan tashqari, Toshkent shahri tajribasi asosida markazning hududiy filiallarida yagona Call-markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Avtomatlashtirilgan tizimga o‘tishdan oldin chaqiriqni qayd etishning o‘ziga 8-10 daqiqa ketardi. Hozir soniyalarda, uzog‘i bilan 1-2 daqiqada murojaat qabul qilinib, tez tibbiy yordam brigadasi planshetiga chaqiriq manzili yuborilyapti.

Ilgari chaqiriq qo‘lda yozilib, kompyuterga kiritilar, keyin tumandagi bo‘limga yuborilardi. Shundan so‘ng tuman bo‘limida yana qayta ro‘yxatga kiritilib, keyingina tez yordam yo‘lga chiqardi. Avtomatlashtirilgan tizim tufayli tez tibbiy yordamning kechikish holati 10-12 foizdan 1-2 foizgacha kamaydi. Chaqiriqlarga yetib borish vaqti o‘rtacha 20-30 daqiqa bo‘lgan esa, hozir o‘rtacha atigi 8-12 daqiqani tashkil etmoqda.

> **Tizimda eskirgan avtotransport vositalari yangilanib, GPS treker bilan ta’minlangani, sohaga zamonaviy “Volkswagen Caddy” rusumli 1000 taavtomashina sotib olingani va hududlarga taqsimlangani inson salomatligini asrash, umr davomiyligini ta’minlash kabi ezgu maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.**

Joriy yildan “103” xizmatida sinov tarzida elektromobillardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Respublika tez tibbiy yordam markaziga “BYD Seagull” rusumli zamonaviy elektromobillar taqdim etilib, ular markazning hududiy filiallari o‘rtasida taqsimlandi.

Yurtimizda tez tibbiy yordam xizmatining avtotransport bilan to‘liq ta’minlanishi brigadalarning chaqiriqlarga kechikish holatini sezilarli kamaytirdi. Bunday holatlarni iloji boricha bartaraf etish maqsadida mavjud brigadalarning aksariyati dislokatsiya nuqtalari uzoq hududlarda joylashgan aholi punktlariga yaqinlashtirildi.

— Hozirgi kunda sog‘liqni saqlash sohasini, xususan, tez tibbiy yordam xizmatini isloh qilishga katta poydevor qo‘yildi, — deydi Respublika tez tibbiy yordam markazi direktori Abduvoitjon G‘afurov. — Oldimizda juda ko‘plab vazifalar turibdi. Birinchi navbatda, birlamchi tizim bilan integratsiya jarayonlarini yo‘lga qo‘yish, oilaviy shifokorlik va tez tibbiy yordam tizimini o‘zaro bog‘lash, ma’lumot almashinuvini tashkil etish orqali tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish ko‘zda tutilyapti. Shuningdek, tizimga hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy tajriba, ko‘nikma va bilimlarni tatbiq etish navbatdagi vazifamiz hisoblanadi.

Tez yordamda ixtisoslashtirilgan feldsherlik guruhi tashkil qilinib, barcha hududiy Call-markazlarda malakali terapevt, pediatr, kardiolog, reanimatolog, nevropatolog, tibbiy psixolog va boshqa tor soha mutaxassislaridan iborat maxsus tibbiy saralash xizmati yo‘lga qo‘yildi. Olis, chekka va tog‘li hududlar, dovonlar, xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarda 103 punktlarini tashkil etish, tizimdagi mavjud avtomashinalarni ixcham reanimatsion jihozlar bilan ta’minlash rejalashtirilgan. Bu kabi islohotlar soha faoliyatini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

— Call-markazlarda saralash hamda maslahat xizmatini joriy qilish ko‘zda tutilyapti, — deydi Respublika tez tibbiy yordam markazi direktori o‘rinbosari Bahodir Bilolov. — Shuningdek, yengil turdagi chaqiriqlarda shifokor yoki feldsher “BYD Seagull” elektromobillarini o‘zi boshqargan holda belgilangan manzilga borib, bemorga tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, yaqin kunlarda pediatrik tez tibbiy yordam brigadalari ham joriy qilinishi nazarda tutilgan.

Abu Ali ibn Sinoning “Inson dardiga darmon bo‘lmoq olijanoblikning eng yuksak namunasidir” degan o‘giti sohada ishlayotgan oq xalatli najotkorlarga nisbatan aytilgan bo‘lsa ajab emas. Bugungi kunda sohada 65 mingdan ziyod xodim faoliyat yuritmoqda va ularning 13 mingdan ortig‘i shifokor, 30 mingdan ziyodi feldsherdir. Ayni paytda Respublika tez tibbiy yordam markazi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash maktabi faoliyat ko‘rsatib, hozirga qadar “103” xizmatining qariyb 15 ming xodimi bu yerda sohaga oid yangi texnologiya va innovatsiyalar bo‘yicha malaka oshirdi.

Qisqacha aytganda, jahon standartlariga mos tibbiy uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy avtomashinalar va yetuk mutaxassislar jamlangan bu tizim o‘zbek tibbiyotini yangi bosqichga olib chiqishga munosib hissa qo‘shmoqda.

* * *

Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, bugungi kunda “103” xizmati Call-markaziga bo‘layotgan asossiz va yolg‘on chaqiriqlar oq xalatli najotkorlar faoliyati, xizmat ko‘rsatish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Misol uchun, o‘tgan 2024-yilda ushbu xizmatga jami 2713 ta, shu yilning dastlabki 3 oyida esa 411 ta yolg‘on chaqiriq kelib tushgani fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Shu yil 7-may kuni Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste’molini tartibga solish hamda tibbiy ta’limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda tez tibbiy yordamdagi jami chaqiruvlarning to‘rtdan biri surunkali kasalligi bor bemorlarga to‘g‘ri kelayotgani aytib o‘tildi. Darhaqiqat, kundalik hayotimizda surunkali kasalligi bor bemorlar goh qon bosimini o‘lchatish, ba’zan qaysidir ukolni qildirish uchun ham tez yordamni chaqiradi. Misol uchun, o‘tgan yili “103” xizmatiga surunkali kasalligi bo‘lgan bemorlardan 3 million 300 mingdan ziyod chaqiruv kelib tushgan bo‘lsa, shu yilning o‘tgan 3 oyida 848 mingta ana shunday toifadagi chaqiriqqa xizmat ko‘rsatildi.

> **Yurtimizda tez tibbiy yordam xizmatining avtotransport bilan to‘liq ta’minlanishi brigadalarning chaqiriqlarga kechikish holatini sezilarli kamaytirdi. Bunday holatlarni iloji boricha bartaraf etish maqsadida mavjud brigadalarning aksariyati dislokatsiya nuqtalari uzoq hududlarda joylashgan aholi punktlariga yaqinlashtirildi.**



— Bu muammoga Call-markazlarda tibbiy maslahat tizimini yanada takomillashtirish hamda tez tibbiy yordam tizimini birlamchi tizim bilan integratsiya qilish asosida barham berish mumkin, — deydi Bahodir Bilolov.

Tez tibbiy yordamga murojaat qilish va tez javob olish, vaqtida kerakli tibbiy yordamga ega bo‘lish aslida inson qadri va roziligi belgisi. “Inson qadri uchun” g‘oyasining zamirida ham ana shu rozilikka erishish yotadi.

* * *

Maqolani tayyorlash jarayonida bir xabar e’tiborimni tortdi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, yurtimizda 2024-yil o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 75,1 yoshni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatda so‘nggi o‘n yilliklarda sog‘liqni saqlash, turmush tarzi va ijtimoiy sharoitlar yaxshilanganini tasdiqlovchi muhim demografik ko‘rsatkich hisoblanadi.

Misol uchun 1991-yilda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 66,4 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 1995-yilga kelib, 69,1 yoshga yetgan. Keyingi besh yillikda, ya’ni 2000-yilda umr ko‘rish davomiyligi 70,8 yoshni, 2005-yilda esa 71,8 yoshni tashkil qilgan.

2010-yilda umr ko‘rish davomiyligi 73 yoshga, 2020-yilda esa bu ko‘rsatkich 73,4 yosh hisoblangan.

2024-yilda qayd etilgan 75,1 yosh ko‘rsatkichi esa mustaqillikdan buyon eng yuqori natijadir. Bu demografik o‘zgarish O‘zbekiston aholisi uchun nafaqat umr davomiyligi uzayganini, balki hayot sifati va tibbiy xizmatlarga bo‘lgan yetarli qamrovni ham anglatadi. Bunda tez tibbiy yordam xizmatining o‘rni alohida, desam xato bo‘lmaydi.

**Risolat MADIYEVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



**Mahmud TOIR,**
**O‘zbekiston xalq shoiri**

# FUTBOLDA SHON TOPDI O‘ZBEGIM

*(Faxriya)*

**Quvonch ko‘z yoshlari — ko‘zimning ko‘rki,**
**Iftixor, shukrona — so‘zimning ko‘rki,**
**Yangi O‘zbekiston — yuzimning ko‘rki,**
**Mardlar dunyo bilan qanday yuzlashar?**
**Sensirab gapirsa, ular sizlashar.**

**O‘zbeklar azaldan shunday yashagan,**
**Osiyo ko‘kida kunday yashagan,**
**Har bir luqmasini halol oshagan,**
**Bu xalq yomonlikni yomon ko‘radi,**
**Yaxshini boshdagi osmon ko‘radi.**

**Qadimiy qudratin erki ko‘rsatdi,**
**Boshin omon tutgan bo‘rki ko‘rsatdi,**
**Bilganin beminnat mudom o‘rgatdi,**
**U poklik vasfida hamon hur bulbul,**
**Boqiylik bog‘ida yuz ochgan bir gul!**

**Endi men maqsadga ko‘chganim bo‘lsin,**
**Shodlik samosida uchganim bo‘lsin,**
**Tangri “zam-zam”idan ichganim bo‘lsin,**
**Chunki kutgan baxtim Arabda quchdim,**
**Arab maydonida sharafda quchdim.**

**Futbol bu — o‘zbekning azobi edi,**
**Jigarin qon qilgan kabobi edi,**
**Kim uchun u maydon xarobi edi,**
**Kun keldi, fikriga tavba qildilar,**
**Bizni bilmaganlar endi bildilar!**

**Haq dedik — Tangrining karomati bu,**
**Muxlislar mehrining saodati bu,**
**O‘zbek o‘g‘lonlarin shijoati bu,**
**Tillarida doim “Alhamdulilloh”,**
**Yor bo‘ldi, yor bo‘ldi mehribon Alloh!**

**Bosim qilganlarning o‘zi bosildi,**
**Alamdan qosh-qaboq, lunji osildi,**
**Yo‘limiz to‘sganning yo‘li to‘sildi,**
**O‘ttiz sakkiz milyon elning duosi —**
**Yangi muzaffarlik — yangi sadosi!**

**Jahonni hayratga solgani rostdir,**
**Qalblarni quvonchga qorgani rostdir,**
**Bu halol g‘alaba millatga xosdir,**
**Ko‘rib yig‘lamagan odam qolmadi,**
**Yangi O‘zbekiston — yangi omadi!**

**Yurtboshi qutlovi — xalqin dil so‘zi,**
**Ko‘zlari namlanar, quyoshdir yuzi.**
**Futbolda shon topdi o‘zbegim o‘zi,**
**Nechun quvonmasin yurt rahnamosi,**
**Bu o‘ttiz to‘rt yillik orzu safosi!**

**O‘tkirbek o‘g‘loni qahramon bo‘lsa,**
**Olti bor yurt sha’niga qalqon bo‘lsa,**
**Shunday bo‘lar bir darvozabon bo‘lsa,**
**Qalam tutdim men ham sig‘may terimga,**
**Sevinch ko‘z yoshlarim siyoh she’rimga.**

**Temur Kapadzening poyqadami xush,**
**Mehribon murabbiy til malhami xush,**
**Deymiz, hech kim ko‘ngli bo‘lmasin noxush,**
**Yaratgan ohimiz tinglab turganda,**
**O‘zi omadimiz o‘nglab turganda.**

**Otabek madhiga qalam ojizdir,**
**Abbosbek to‘p sursa, uchar yulduzdir,**
**Odil oldga o‘tsa, raqib dilgirdir,**
**Millat shunqorlari, el o‘g‘lonlari,**
**Ular Vatan qadrin zo‘r posbonlari!**

**Hojiakbar misli shiddat shamoli,**
**Futbol bu — Eldorning tug‘ma kamoli,**
**Jaloliddin — jamoaning iqboli,**
**Bir jon, bir tan bo‘ldi, bir O‘zbekiston,**
**Bunday jamoaga ta’zim, sharaf-shon!**

**Havas qilganlarga ibrat timsoli,**
**Ilhom manbaidir, baxtning jamoli,**
**Jon fido bo‘lsa kim ular misoli,**
**Ota-onasining duosin olib,**
**Bo‘lgaydir hamisha har ishda g‘olib!**

**Tarixiy g‘alaba — o‘zbekning ori,**
**Janni Infantino — FIFA sardori...**
**Yo‘llagan maktubi quvonch alyori.**
**Arab maydonida qilib to‘yini,**
**Jahonga bo‘yladi O‘zbek bo‘yini.**

**Qo‘l oching, azizlar, endi “Omiyn!” deng —**
**Tinch bo‘lsin el-u yurt, ona zamin, deng.**
**Futbol olamiga yo‘l ochildi keng,**
**Zafar yor, sog‘ bo‘lsin oltin boshlari,**
**Yangi O‘zbekiston yangi yoshlari!**

**Mushohada**



**Yurtimizda mehr-oqibat shunchaki so‘z emas, u o‘zbekni o‘zbek qilib kelayotgan ruhdir. O‘zbek xarakterini bezab kelayotgan yoqut. Bu qadimdan otalar nasihatida, onalar duosida, qo‘shnilar munosabatida yashab kelayotgan qadriyat. Zero, mehribonlik – kishi yuzida tabassum uyg‘otish, oqibat esa tabassum uyg‘otgan kishidan minnatdorlikning qaytishidir. Yurtimizda ko‘plab urushlar, ocharchiliklar bo‘ldi. Lekin ular xalqimizning o‘zaro mehriga, insoniy qiyofasiga putur yetkaza olmadi.**

# YUKSAK TEXNOLOGIYALI, MEHR-OQIBATLI JAMIYAT BARPO ETISH SIRI NIMADA?

Alisher Navoiy hazratlarining “Odami ersang, demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” degan o‘gitining o‘ziyoq o‘zbekona mehr-oqibat shiori bo‘la oldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida minglab bolalar yurtimizga boshpana izlab keldi. Xalqimiz ularga o‘z farzandiga qaragandek qaradi, boshini siladi. “Begona” degan so‘z yo‘qoldi. Bu o‘zbekning ruhi, mehri edi.

Prezidentimiz shu yil 9-may — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida bu urushda o‘zbekistonliklar ko‘rsatgan jasorat va fidokorona mehnatni alohida ta’kidladi. Eng ta’sirlisi, davlatimiz rahbari urush yillarida O‘zbekistonga 1,5 millionga yaqin odam evakuatsiya qilingani, jumladan, 250 ming yetim bola mehr bilan kutib olinganini alohida eslatdi. Bu oddiy raqamlar emas, uning ortida mehr-oqibat degan fazilat mujassam.

Har qanday qiyin sharoitda odam odamga bera oladigan bir narsa bor. U ham bo‘lsa, bir og‘iz tasalli, dalda, qo‘llab yuborish, bir dona non bo‘lsa-da berish. Xalqimiz, bir qaraganda, ana shu juz’iy ishda ham ulkan fazilat ko‘radi. Bu fazilat mahallalarimiz, qishloqlarimiz, shaharlarimizda ham bor. Chunki qalbimiz mehr muhitida shakllangan.

Dunyoga nazar solsak, hayot tobora tezlashib, texnologiyalashib, yashash uchun raqobat kuchayib borayotganini ko‘ramiz. “vaqtni quvish” rejimi individuallashuvga, odamlarning atomlashuviga, ya’ni har kim o‘z hayotiy tashvishlari bilan o‘ralashib qolishiga olib kelmoqda. Mana shu yerda bizning milliy, o‘zbekona jamoaviylik an’analarimiz odamlarning individuallashuviga duch keladi. Mehrsizlik eng katta yo‘qotish bo‘lishini G‘arb jamiyatlari misolida ko‘rib bo‘ldik. Mana shunday sharoitda mehr-oqibatni saqlash biz uchun jamiyatni birlashtirish, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga safarbar qilishning shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mehr-oqibat odamni inson qiladigan fazilat. U nafaqat qarindoshlarga, balki notanishlarga, hatto tabiatga, hayvon, buyumlarga ham mehribon bo‘lishni anglatadi. Mehr-oqibat kirib borgan joydan zo‘ravonlik, e’tiborsizlik, yolg‘izlik, loqaydlik qochadi. Afsuski, odamlarni, jamiyatni o‘zaro bog‘laydigan ko‘rinmas, lekin mustahkam rishta bugun ilmiy-metodik o‘rganishga muhtoj. Chunki bugungi dunyo tezkor, raqamli va tobora individuallashib borayotir. Bolalar smartfonlar, internet va sun’iy intellekt davrida ulg‘ayyapti. Ularning bilim doirasi keng, texnologiya bilan do‘st.

Ammo yana bir muhim jihat borki, u texnik jihozlar bilan emas, qalb bilan bog‘liq. U — mehr-oqibat. Biz mana shu fazilatni, uning mezon, tarkibini sotsiologik, pedagogik-psixologik o‘rganib, aniqlab, o‘lchab, baholab farzandlarimizni tarbiyalamasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin. O‘zbekona mehr-oqibat ilgari bo‘lmagan sharoit, sinovlarga duch kelyapti. Globallashuv, yaxshi-yomon axborotlarning jilovsiz targ‘iboti o‘z ishini qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar bir-biriga ochiqdan-ochiq achchiq so‘zlar yozyapti. Mana shu holat ham mehr-oqibat haqida bong urishga chorlaydi. Chunki mehr bor joydan nafrat qochadi.

## Raqamli avlod ma’naviyati

Bugun bir oilada turli avlodlar — xomush avlod (1925-1944-yillar), bumerlar avlodi (1944-1967-yillar), X avlod (1967-1984-yillar), milleniallar avlodi (1984-2000-yillar), Z avlod (2000-2015-yillar) va Alfa avlod (2011-yildan keyin tug‘ilganlar) yashayapti. An’anaviy tarbiyalangan avlodlar bilan internet tarbiyasini olgan raqamli avlod xulqi orasidagi farq tobora sezilib bormoqda.

Raqamli avlod, ya’ni internet, smartfon, planshet va texnologiyalar orasida o‘sib kelayotgan yoshlarning xulq-atvorida kuzatiladigan jihatlarga nazar solsak, ular internet orqali ma’lumot topishni yaxshi biladi. Yangi ma’lumotni tez izlab, tez ilg‘ab oladi. Ular yangi dasturlar, telefon ilovalari, zamonaviy qurilmalarni kattalardan ildam o‘zlashtiradi. Kreativ fikrlab, fikrlarini video, grafika, o‘yin, dizayn orqali ifoda qilishni qotiradi. Bunday o‘g‘il-qizlarda yaratish, yangilikka intilish kuchli. Onlayn kontent asosan, ingliz va boshqa tillarda bo‘lgani uchun til o‘rganishga qiziqishi va savodxonligi yuqori. Chunki ular global o‘ylaydi. Dunyodagi turli madaniyatlar, hayot tarzi bilan tanishib, ularda keng doirada fikr yuritish qobiliyati shakllandi.

Muammolari — jismoniy faollik kam. Displey oldida uzoq o‘tirish bolalar sog‘lig‘i, ko‘zi va umurtqasiga zarar yetkazadi, harakat faolligi pasayadi. Haqiqiy suhbat o‘rniga chatda yozishga odatlanib, jonli muloqotda qiynalishi mumkin. Tezkor ma’lumotlarga o‘rganib qolgan bola biror narsaga diqqatini uzoq vaqt qarata olmaydi. Sabrsizlik o‘sib, qunt kamayadi.

Internetdagi xavflar, g‘arazli kontent, zo‘ravonlik, aldamchilik yoki noma’lum shaxslar bilan tanishuv ular uchun jiddiy tahdid bo‘lishi mumkin. Gadjetga berilib ketgan bola ota-ona va yaqinlari bilan munosabatga kam vaqt ajratadi. Bu esa muhabbat va ishonchni kamaytiradi. Qisqasi, raqamli avlod — aqlli, ziyrak va tezkor, lekin uni tarbiyalashda ongli nazorat va sog‘lom muhit juda muhim. Bu avlodga faqat gadjet emas, mehr-oqibat namunasi va ko‘nikmasi ham kerak.

Buning sababini Prezidentimiz 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzada o‘qiymiz: **“Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda**



**“o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.**

Ha, raqamli avlodlarni mana shu konseptual fikr doirasida mehr-oqibat fazilati asosida tarbiyalashga bugun kirishmasak, ertaga kech bo‘ladi.

Yoshlarimiz mehr-oqibatni nafaqat eshitishi, balki hayotda ota-onasi, ustozlar timsolida ko‘rishi kerak. Bola kichikligidan mehr ko‘rsa, ulg‘ayganda hech kimga zo‘ravonlik qilmaydi, hech qachon kimnidir kamsitmaydi. Chunki u yaxshi niyat, mehr muhitida o‘sgan. Zero, kelajak — mehrli odamlar qo‘lida. Ularning nigohi teran, yuragi ochiq, dunyosi nurli.

## Bir tadqiqot qissasi

Buxoro viloyatida avlodlar orasidagi mehr-oqibat munosabatlarini tadqiq qilish uchun ota-onalar bilan suhbat o‘tkazdik. Jondor, Shofirkon, G‘ijduvonda “Avlodlar uchrashuvi” ma’rifiy tadbirlari tashkil etildi. Zalni ikkiga bo‘lib, bir yonga keksalar va ota-onalar, ikkinchi yonga yoshlar o‘tqazildi. Bu yuzma-yuz, bevosita muloqotga qulay bo‘ldi.

Yuqorida aytganimizdek, hayron qiladigan jihat shuki, uchala uchrashuvda ham ikki avlod bir-biridan mehr, xushmuomala, e’tibor, qo‘llab-quvvatlov kutishi aniqlandi. Eng ko‘p aytilgan, istalgan, kutilgan so‘z “mehr” bo‘ldi. Bu bizda hayrat uyg‘otdi. Nahotki,



mehr shunchalar noyob bo‘lsa? Nahotki, ikki tomon ham bemehr? Yo‘q, ikki tomonda ham mehr berish va olish istagi bor. Unda nega mehr buncha tansiq?!

Buni aniqlashni ota-onalarning kundalik lug‘at boyligidan boshladik. “Mehr” so‘zining ma’nosini so‘radik. Ko‘pchilik “yaxshilik”, “xushmuomalalik”, dedi. Albatta, bundan ko‘nglimiz to‘lmadi. Chunki mehr arabcha so‘zligini, o‘zbekcha “quyosh” bo‘lishini bilamiz. Quyosh ham yoritadi, ham isitadi. Oy esa yoritadi, isitmaydi. Demak, mehribon odam boshqa odamga mehr berib, uni isitadi, ko‘nglini yoritadi. Shuning uchun mehribonlik, deyiladi. So‘ralgan 354 keksa va yoshdan bitta o‘qituvchi ayol “mehr” so‘zining ma’nosi “quyosh”ni anglatadi, dedi.

“Ayting-chi, kundalik hayotda biz bir-birimizga mehribonmizmi? Marhamat, misollar keltiring” degan taklifni o‘rtaga tashladik. Qatnashchilardan 5-6 nafari mehribonlikka kundalik hayotdan misol keltira oldi, xolos. Qolganlarning bu so‘zni noto‘g‘ri tushunishi yo bilmasligi ma’lum bo‘ldi. Misol uchun “mehribonlik bu — “Opajon, ko‘ylagingiz biram o‘zingizga yarashibdi. Chiroyli chiqibdi”, “Bolam, agar 5 ta 5 baho olsang, senga PSP-2, spinner olib beraman, deyish” deb javob berdi ishtirokchilar. Albatta, bu javoblar to‘g‘ri emas. Biri — maqtash, ikkinchisi — va’da.

Shunda biz “Bolalaringiz sizga o‘z mehrini qanday bildiradi?” deb so‘radik. Ishtirokchilar chuqur o‘yga tolib, jim qoldi. Faqat bir o‘qituvchi ayol “8-mart kuni o‘g‘lim rasm chizib, tagiga “Dunyodagi eng yaxshi onaga!” deb yozib sovg‘a qildi”, dedi. Erkaklar javob bermadi.

Ularga “Bolalaringiz sizga qanday muomala-munosabatda bo‘lishini istardingiz?” deb savol berildi. Ishtirokchilar “Bolalarimiz xushmuomala bo‘lsa, ko‘nglimizga qarasa, o‘qraymasa, gap qaytarmasa”, dedi. “Bolalaringiz shundaymi?” deb so‘ralganda ularning ko‘pi jim qoldi. “Qaniydi, shunday bo‘lsa” deb qo‘ydi bir onaxon astagina.

Keyin yoshlarga “Ota-onalaringiz sizga qanday muomala-munosabatda bo‘lishini istardingiz?” deb savol berilganida, ular “Muloyim bo‘lsa, ko‘nglimizga qarasa, o‘qraymasa, jerkib tashlamasa”, dedi. Ular ham “Ota-onalaringiz shundaymi?” deb so‘ralganda, jim qoldi. Faqat bir o‘smir: “Ko‘pincha urishishadi, do‘q qilishadi” deb qo‘ydi iymanib. O‘smirlar uni unsiz ma’qulladi.

Shunda ularga “Bumer va Z avlod bir-biridan mehr kutadi Buni amalga oshirishga nima xalal beryapti?” degan aniqlovchi savol berilganida ham jimlik kuzatildi. Mana shu jimlik shu paytgacha mehr-oqibat fazilati ilmiy o‘rganilmagani, mehribonlik tarbiyasiga e’tibor berilmaganini ko‘rsatadi. Bu esa “Ota-onalar universitetlari” orqali bu mavzuni alohida, oilabay o‘qitish zaruratini ko‘rsatmoqda.

## Mehr sotsiologiyasi

Internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual o‘yinlar — bularning barchasi bolalarning hissiy dunyosiga ta’sir qilyapti. Ko‘pincha yoshlar ekran orqali boshqalar bilan muloqot qiladi. Shu bois, haqqoniy ijtimoiy voqelikdan uziladi. Bu holat ularni his-tuyg‘u jihatdan sovuq, bee’tibor qilib qo‘yishi mumkin. Biroq aynan shu texnologik muhitning o‘zida mehr-oqibat fazilatini tushuntirish, uqtirish, ko‘rsatish, hatto mashq qildirib, rivojlantirish imkoniyati ham cheksiz. Demak, aniq, ya’ni mehr-oqibatga o‘rgatishga yo‘naltirilgan kontent, ijobiy rolli modellar, volontyorlik tashabbuslari — bularning barchasi raqamli avlodni milliy ruhda tarbiyalash, yoshlarga mehr-oqibat haqida nafaqat gapirish, balki xulq modellari shaklida o‘rgatishga imkon beradi.

Nima qilmoq kerak? Ota-onaning shaxsiy namunasi raqamli avlod uchun ham dolzarb. Bolalar gapni eshitadi, xulq, harakatga qarab o‘rganadi. Shunday ekan, ota-onalar bobo-buvilarga, qariyalarga, bolalarga, qo‘shnilarga, tanishu notanishlarga qanday munosabatda bo‘layotganini qayta-qayta ko‘rsa, bolalar ana shu xulqni takrorlashga moyil, tayyor bo‘lib o‘sadi.

Maktabda faqat bilim berish emas, balki hissiyotlar, rahmdillik, kechirimlilik haqida suhbatlar o‘tkazish kerak. Dramatizatsiya, kitob o‘qish, hayotiy voqealarni muhokama qilish samarali bo‘ladi. Yoshlarni kichikligidanoq yaxshilikka, birovga g‘amxo‘rlik qilishga jalb etish mehr-oqibatni amaliy ko‘rinishda o‘rgatishning eng ta’sirli usuli. Mehribonlik uylari, bolalar shifoxonalari, muhtoj oilalar — bular hayotni to‘g‘ri ko‘rishga, shukronalik, mehribonlik tarbiyasiga yordam beradi.

Z va alfa avlod uchun internet hayotning bir qismi. Shu sabab raqamli etika, onlayn mehr-oqibat, internetda boshqalarga hurmat bilan muomala qilish — barchasi o‘rgatilishi shart. Demak, zamonamizning yangi sotsiopedagogik vazifalaridan biri bolalarimizga raqamli dunyoda ham inson bo‘lib qolishni o‘rgatishdir.

Zamon o‘zgaradi, texnologiya ilgarilaydi. Ammo inson qalbining ehtiyojlari hamisha bir xil va o‘zgarmas: yaxshi so‘z, samimiy tabassum, yordam qo‘li. Agar biz Z va alfa avlodga shuni bugun o‘rgatib, ularning odatiga aylantira olsak, kelajakda nafaqat aqlli, yuksak texnologiyali, balki mehribon, oqibatli jamiyatda yashaymiz.

Mehr-oqibat haqida o‘tgan asrlarda nazariy-falsafiy, mavhum tushuncha deb kelindi. Bugungi sotsiologiya fani erishgan yutuqlar bu fazilatni tarbiya texnologiyalari orqali bemalol o‘stirish, mashq qildirish, o‘rgatish, odatlantirish metodlariga ega. Bu fazilat insondan insonga o‘tadi. Uni yoshlarga o‘tkazish vazifasi bugun biz — kattalarning zimmasida turibdi. Zero, Abdulla Avloniyning bundan yuz yil avval aytib ketgan bir o‘giti hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q:

***Tug‘ib tashlov bilan bo‘lmas bola,***
***bo‘lgay balo sizga,***
***Vujudi tarbiyat topsa,***
***bo‘lur ul rahnamo sizga.***

**Bobur KARIMOV,**
**Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** — 646.
36191 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

O‘zA yakuni — 01:10